

Genetik

06.12.2016



(roman)

Muqaddima

Aytadilarki, bir odam daryo yoqalab kelayotib, kattakon yombi topib oldi. Qo'ynidan yong'og'ini olib, chaqmoqchi bo'lib uringan edi, yombi bir necha bo'lakka bo'linib ketdi. "Yaltiroq bo'lgani bilan hech nimaga yaramas ekan-ku", deya afsuslanib uni otib yubordi-da, qirg'oqda qalashib yotgan oddiy toshlardan biri bilan yong'og'ini chaqib yedi hamda murod-maqsadiga yetib, o'z yo'liga ravona bo'ldi.

Birinchi qism

"Tong ota boshladi,

so'ng uning izidan yer yuzi yorishdi.

So'ng quyosh chiqdi, hamma yoq yorug' bo'ldi.

Er yigit emaklab bordi, Tangriga yo'liqdi..." [i]

Ona tuproq

(Genetikning birinchi hikoyasi)

Qishloq. Yoz. Jazirama.

Qoq tush mahali baqaterak ostidan zaif bir "puf" yelib o'tadi.

U – shu makonning mitti epkini. Terak barglarini bir chayqatadi-yu, ariq bo'yiga o'zini tashlaydi. Yana birini suv shabadasi deydi. Qayrag'ochdan uzoqqa ketolmay, kambar barglar orasida aylanib esadiganiam bor. Quvvati kuchliroq bo'lgani sababli sal beriroqqa kelib, issiqda qimir etmay turgan jo'xorilarning uzun, sariq hoshiyali yaproqlarini chayqatib o'ynaydi.

Ba'zilari yo'llarda sho'xlik qilishadi. Qumoq yo'ldan ketavering-chi. Yo'l o'rtasida yo chetida mitti girdob yasab, tuproq to'zg'itib pirillayotgan quyunchani ko'rib qolasiz. Birozdan keyin o'z-o'zidan tinib, mayda xas-cho'plarni sochib yuboradi.

Yana bir turli shabada tongu shomda bedazorlar tomondan esadi. Saharlab o'sha yoqqa ketib, oqshom iziga qaytsa kerak. Bedazorga yetgunicha tomorqalar uzra yeladi.

Qo'shnining ko'zi ko'r laychasi uni sezib, huradi.

– Itga o'xshamay o'l, muncha hurasan? – deydi ona unga.

Olislardan keladigan qudratli shamol esa tevarakni kulrangga o'zgartirib yuboradi. Balki chang ko'targani uchun samo kul tusiga kirar? Avvaliga ko'klarda yeladi, keyin pastga tushganida benihoya ko'p tovushlar hosil qiladi. Devor boshidagi guvalaklar bo'g'iq guvillaydi. Bo'g'otlardan ham shunaqa sas chiqadi. Darvoza yoriqlaridan kirib hushtak chaladi. Hovlida valishga ilib qo'yilgan tolsavat cho'plari shirillaydi. Ona dorga osgan

kirlarini uyga olib kirib ketgan. Tarang tortilgan chilvir dirillagan sas chiqara boshlaydi.

Daladagi tovushlar esa tamomila boshqa va ayqash-uyqash. Yerdagi no'xat bilan loviya poyasi uzun, ingichka, tinmay siltanadi. Shamol zabtida xinoning qobig'i yorilib, ichidagi qizil urug'larini sochib yuboradi. Makkalar shovullaydi. Daraxtlar ostiga borsangiz shitirlagan, chitirlagan, zirillagan yuzlab saslarni eshitasiz. Bular orasida chiyilloqlari ham bor. Kurmakning uzun poyasi shunaqa tovush chiqaradi. Daraxt shoxidagi qush polaponlari qo'rqib chiyillashadi.

O'h-ho', uni o'shanda ko'rsaydingiz! Yoyib qo'yilgan kirlarni uchiradi, mo'rt teraklar, shoxlarini bemalol yoyib yuborgan tol-o'riklar qarsillab sinadi, tanasining och-sarg'ish bag'ri ochilib qoladi.

U ko'pincha yomg'ir bulutlarini surib keladi. Bulutlar ham turli-tuman. Oralarida chaqmoqlari bilan keladigani bor, u shiddatli jala quyadi. Tomchilari kichikroq bo'lsa, hammayoq shovullaydi. Kattaroq bo'lsa, ko'lmaklarda pufakchalar hosil qiladi. Bo'tana suvlar xaslarni aralashtirib oqizadi, ba'zan yalpiz yaproqlarini uzib yuboradi, ular ham xaslarga qo'shilib oqadi.

Qaylardadir yomg'ir qirq kecha-kunduz yog'adi deyдилar. Ummonlar uzra shovullab quyadigan jalalar ham bo'larmish. Balki dunyoning boshqa joylariga borsangiz, yomg'irlari begona tuyular? Sababi: taftiyu hidi, tovushlari o'zga. Bizda esa mol-qo'y isi, kimningdir bolasini chaqirgan ovozi, chechak aralash o'tloq hidlari aro yoqqan yomg'ir turfa tovushlar bilan birga, islarni ham hosil qiladi. Avvaliga yer betlarida mitti kulrang nuqtachalar paydo bo'ladi. Unaqa nuqtachalarni nafaqat yer betida, balki tom ustida ham ko'rasiz. Tomchilar dov-daraxt, o't-o'lan ustida turib qoladi. Dala-tuzni, tuproq yo'llarniyu so'qmoqlarni, o'rilgan pichanlarni bir xilda qoraytirib-namlab, shivalab uradi. Keyin hamma yoqni shalabbo qilib tashlaydi. Makkapoyalar, yer betida qolib ketgan ashyolar, qo'radagi eski o'tinlar – bari birday namlanadi. O'rmalab ketayotgan chumoli ustiga tushsa, chumoli qo'rqib to'xtab qoladi. O'rgimchak to'riga tushsa, to'r egasi apil-tapil qochadi, yomg'ir ekanini biladi. Hayvonlar bamaylixotir bosh chayqab, rizqini yeyaveradi. Parrandalar esa bostirma ostiga o'tib oladi.

Yomg'ir ostida daraxt shoxiga chiqib olib, osmonga qarab qichqirgim keladi.

Qiziq, qushlar yomg'irda qochib ketmaydi. Qarg'a, zag'cha, qaldirg'och bemalol uchadi. Chumchuq bilan musicha berkinib oladi.

Yomg'ir yoqqanida ham yoqimli, haybatli ohang yaraladi. Har narsa ayri un chiqara boshlaydi. Tol yoniga borsangiz, daryoday shovullashini eshitasiz. Sababi: barglari uchli, uzunchoq, qayiqchaga o'xshaydi, yomg'ir suvi ulardan oqib pastga quyiladi. Terak shitirlaydi, yaproqlari tig'iz bo'lgani uchun bir-biriga uriladi. Kattaroq bargli daraxtlarda dag'alroq tovushlar hosil bo'ladi. Quruq shox-shabbalar boshqa, xaslar boshqa saslar chiqaradi, xullas, butun borliqqa bastachisiyu ijrochisi tabiat bo'lmish yomg'ir musiqasi taralaveradi.

– Hoy bola, beri kel! Ivib ketibsan-ku? Nima bor yomg'ir tagida?

..Mana shular – qalbim to'ridagi aziz manzaralar. U makonlarga kirsam, o'zim ham besh-olti yashar bolakayga aylanib qolaman-da. Kichkina etik kiyib, shamol quritib ketgan loy ko'chalarni kezaman. Daraxtzorlarni, jingilzorlarni aylanaman, eng mayda hodisalargacha nazar solaman.

Odamlar esa o'sha hodisalar bilan birgalikda jonlanadi. Bir kechayu bir kunduz tinmasdan esib, yeru ko'kni quritib ketadigan shamol xayolimda qo'shnimiz Ubay akaning qichqiriqlari bilan birga sadolanadi. Yana, maktab sinfxonasidagi olov gurillagan qora cho'yan pechka, deraza tirqishidan kirayotgan yelvizakda sovqotib, quloqchinlarini tushirib saboq olayotgan bolalar, ko'zga ko'rinmas havoning zug'umli hayqirishlari aro patlari yulqina-yulqina, uyasidan nari ketolmay yurgan parrandalar, nihoyatda zerikarli va hech kimga keraksiz dunyo fanlari namoyon bo'ladi. Yomg'ir desam, bahor jasasida ba'rab shataloq otgan qo'zilar bilan bir qatorda bepoyon dalalar ko'z oldimga keladi, qalbimni shirin hislar chulg'ab olaveradi. Bol deganida biznikiga mehmon bo'lib kelgan, olis ajdodlarimizning qaysi bir halqasida qanaqadir aloqasi borligi uchun qarindosh desa ham bo'laveradigan qishloqdoshlarimizni eslayman. Ular bilan kelgan qizaloqni ko'rib bir lahzaga qotib qolgandim go'yo. Qizgina nihoyatda chiroyli edi, ammo chiroyi nimada desangiz, javob berolmasligim ham bor gap. Qarindoshlar o'shandan keyin qaytib kelishmadi, yashash joyi Dashti Qipchoq ekanini bilsam-da, tasavvurimda juda olis, tushunarsiz g'alati makonday bo'lib qolaverdi. Meni dovdiratgan – turli ifodalarni akslantirgan ko'k-yashil, gavhar ko'zlarimidi?

U mahallar atlas burmali ko'ylaklar urf bo'lgan, tus qora sochi uzun edi... Asalari to'dasini ko'rsatganim, uyadan oqib tushgan bolni berganim, tiliga tekizib ko'rib: "Rosa shirin ekan", deb minnatdor qaragani ham esimda.

Ongim u manzarani kuchaytirib, ranglarini yorqinlashtirib o'ziga jo etgan. Ko'rilgan-bilingan hodisalarning tasavvurda o'zgarib jonlanishidan xabar topganimdan keyin shunga diqqat

qiladigan bo'ldim, bilsam, aynan men ko'rishni istagan shaklda jonlantirar ekan.

* * *

Sap-sariq quyosh samoga ko'tarilganida, osmon bag'ridagi bir nechta bulut yer betida asta siljuvchi soyalarni va har yer-har yerda osmondan yergacha ingan yorqin nur dastalarini hosil qiladi. Nurlar dov-daraxt va buta shoxlariga zar libosini kiydirsa, bulut ko'lankalari ularni birpasda kulrangga bo'yaydi. Oftob ko'tarilgani sayin butalar, kichik qirlar, og'ochlarning uzun soyalari qisqarib, o'ziga o'xshamay qoladi, kichraya-kichraya, egalari poyida yotgan xufya askarlarga aylanishadi. U askarlar yer betida har yer-har yerda, xuddi dala-tuz tinchini qo'riqlagan kabi, har do'ng, har tepa, har buta ostida turishadi, birining miltig'i, birining kamoni, yana birining qalqoni ko'lanka bo'lib ko'zga tashlanadi. Tevarakda esa asta-sekin ulug' bir siljish ro'y beradi.

Bunday manzaralar qo'shnimiz Niso xolaning qarovsiz terakzori orasida ham namoyon bo'ladi. Niso xola yolg'iz kampir edi, qo'ni-qo'shnilar bechoraga har kuni ovqat chiqarishardi. Terakzor osti soya bo'lgani uchun har narsa g'alati tarzda o'sib ketgan, masalan, otquloq barglari naq bir qulochga yetgan, bilsangiz, uning yaprog'ining iplari bo'ladi, eng uzun iplar o'shandan chiqadi. Soya bu yerda harakatlanmas, turg'un, shu sababli boshqa o't-o'lanlar ham uzaygan, yovvoyi qo'ziqorinlar odatdagidan ancha katta, hatto o'rgimchaklar ham kattalashib, ulkan to'rlar to'qigan.

Qayrog'och shoxlari orasidagi asalari to'dasini o'sha yerda tasodifan ko'rib qolganman. Ostidan o'tib ketayotsam, boshimga, sochlarim orasiga quyuq bir nima tomchilab, yuzimga oqdi. Siypalab ko'rsam – asal! Suyuq, novvotrang, gul isi anqib turibdi. Tepaga qarasam – baland shox orasida g'uj asalari to'dasi! Qaydan kelganiga aqlim yetmadi. O'sha yerga in quribdi, bol ham to'plabdi.

Otamga aytsam, o'ylanib turib: "Qaydandir ajralib chiqib, shu yoqqa kelib qolgandir? Egasini topmasak bo'lmas, nima bo'lganda ham birovniki", dedi.

Lekin asalari sirini otamga Dashti Qipchoqdan kelgan mehmonlar orasidagi qizdan so'ng aytganman. U qiz kelib-ketgungacha bir-ikki kun ichimga sig'may yurganman. Otam yoki ukalarim tomorqaning o'sha xilvat tomoniga o'tishsa, asalarilarimni ko'rib qolishmasmikin deya jon hovuchlardim. Asalarilar kechalari qanaqa uxlashar ekan? Qo'limga fonar olib tunda daraxtga tirmashib, nima qilayotganini ko'rgim keladi. Lekin tunda bo'lsa-da chaqib

olishi mumkinligi hayiqtiradi ham. Chunki bir-ikki kishini asalari to'dasi quvlaganini bilaman, qo'llarini havoda silkita-silkita qochishganini ham eslayman.

Asalari odamdan boshqa kimni chaqishi mumkinligi haqida o'ylayman.

Chumolini chaqolmaydi, chunki kichkina. Qushniyam chaqolmaydi, pati bor.

Hayvonlarniyam chaqolmaydi, sababi – terisi qalin. Unda, kimni?

– Ayiq asalni yaxshi ko'radi, – dedi otam. – Uyasi bilan qo'porib olib, panjalarini botirib, yalab-yalab yeydi. Asalxo'r ayiq bu atrofda yo'q, bo'lganida ham chaqolmasligi aniq.

– Unda kimni?

– Odamni-da, – kuldi otam. – Asalini olaman desang, chaqadi.

Dushmani odammikin? Yana aqlim yetmaydi.

Uya asalga limmo-lim bo'lsa kerak. Har zamonda bir chakillab tomadi. Tomchisiga kaftimni tutaman. Shaffof, tiniq, katta tomchi. Qarasam, daraxt tanasi chumolilarga to'lib ketibdi. Hammasi bol ishqida o'rmalashyapti.

U bol qaydan keladi?

Asalari qaydan topadi uni?

Ularni kuzataman. Asalari zirillab uchib keladi, gulkosa ichiga kiradi. U yerda juda nozik, chiroyli changli joyi bor. O'sha yerda bir nimalarni to'playdi. Sinchiklab qarayman-u, bolni ko'rmayman. Arilar birin-ketin uchaverishadi.

O'sha kuniyoq otam quti topib, yuz-ko'zini latta bilan o'rab, uyani olib tushadi. Asalarilar g'uj bo'lib ergashadi. Otam uyani quti ichiga soladi, qo'li bilan asalarilarni haydaydi. Eh-he, ular son-sanoqsiz. Joylagach, menga uzoqdan asalini ko'rsatadi. Sarg'ish katakchalarga joylar ekan. Onam bergan kosani olib boraman, tegrasida asalarilar g'ujg'on o'ynagan otam kosaga asal oqizadi. Kosa yarim bo'lgach, u yerdan uzoqlashadi. Asalarilar biroz quvib keladi-da, ortga qaytadi.

Barmog'imni tiqib, yalab ko'raman. Juda lazzatli, tomog'im qirilib, ovozim chiqmay qoladi.

Dashti Qipchoqdan kelgan qiz menga o'sha asalni eslatadi. Yuzi novvotrang, o'shanday shirin bir nimadan darak beradi. Peshonasiga bir-ikki husnbuzar toshgan edi, o'ziga yarashgani-chi? Qo'llari ham esimda, alanga oldida o'tirganimizda ko'rganim – odatiy qavargan, mehnatkash qo'llar edi. Ust tarafi qoraygan, kaftining ichi esa nimagadir qizg'ish, ya'ni, xino qo'ygan ekan. Rosa gapirganim ham esimda, ajabki, nimalarni gapirganim yodda yo'q. Gapimni tinglaganida xiyol jilmayishiga mast bo'lib, o'zimni ko'rsatgim kelgani-chi? O'shanda nima uchundir terakning uchiga chiqib chumchuq polaponini optushgim kelgan edi. Yana, katta to'nkani ko'tara olishimni ham ko'rsatganman. Bular mayli, daraxtu ekinzorlar uzra ucholganimda, qo'llarimni keng yoyib, ko'klarda charx urib aylangan bo'lardim.

Keyin erkak-xotin ayri-ayri ovqatlanishdi. Erkaklar so'rida, xotinlar ayvonda, u yoq-bu yoqdan juda zerikarli gaplardan gapirib o'tirishdi. Ota-bobolari shu qishloqda yashashgan ekan, u mahallarda turmush juda xarob, shoyad o'nglansak deya uzoqlarga ko'chib ketishganmish. Sochiga cho'lpi taqib olgan kampir "Nimagayam o'sha yoqlarga ketgan ekanmiz, darvoza tiq etsa vatanimdan birov keldimikin deb sochim oqardi" deb yig'ladi. Bu gap-so'zlar o'z to'dasidan ayrilib daraxtga kelib o'rnashgan asalarilar to'dasini ham esimga soldi. Taom yeyilib, fotiha qilingach, xuddi shu tartibda joy to'shaldi, hamma uyquga yotdi. Teraklar ortidan sarg'ish-qizg'ish tusli katta oy ko'kka ko'tarildi. Yog'dusi ayvonga tushganida, xayolim u qizning sochlari yoyilib uxlayotganini ko'z oldimga ro'para qildi, hatto peshonasidagi bir-ikkita qizg'ish po'rsillagan husnbuzarigacha ko'rsatdi.

Ertasiga saharlab turganimda mehmonlar yo'q, xayrlashib jo'nab ketishgan ekan.

– Bir chiroyli qizchasi bor ekan, ismi Intizor emish, – deyishdi xotinlar.

Qizning ismi Asal emas, Intizor bo'lib chiqqani tasavvurimni o'zgartirmadi, balki daraxt shoxlaridan tomgan bolni tatib ko'rib ko'zida quvonch ila kulgan qiz bilan tunda ko'tarilgan ulkan oy birlashib, yetib bo'lmas armonli manzaraga aylanib qoldi. U paytning issiq, tig'iz havosi, yaproqlar orasidan tushib turgan dasta quyosh nuri hamda o'sha nur dastalarida yog'dulanib uchgan kapalagu ninachilar, tabiatning umumiy shovqini aro kimningdir bolasini chaqirgan, kimningdir kulgan, kimningdir ozorli ovozi, hayvon tovushlari va qaydadir shodlanib hurgan kuchuk saslari ila o'sha tutab turgan nigoh birlashib, qalbimga joylandi.

Men u qiyofa endi sira o'zgarmasligini, oradan qancha yillar o'tsa-da, bir xilda malohatli bo'lib qolaverishini bilmagan ekanman. Safarga ketayotganlar aziz qiyofalarni endi sira ko'rmayman, deb afsuslanishadi-ku? Oradan shuncha yil o'tdi, ko'p kunlarni boshdan

kechirdim deyman-u, ichimda haliyam o'sha bolakay yashayotganini sezib turaman. Manzaralarga qarab quvonsam, u ham qiqirlab kuladi. Asal qiz ham ichimda o'sha malohati ila o'zgarmasdan qolgan...

* * *

Asalariday beozor, tartibli hasharot yo'q deyishadi. Kattalar aytishicha, bol to'plashidan tashqari, gul-chechakni changlantirar emish. Bahor issiqlarida chaman bo'lib ochilgan gullar orasida albatta asalari manzarasi bor. "Biz ham asalariday tinmaymiz, – deydi otam. – Ammo tashib kelgan rizqimiz qayda-yu, asal qayda?"

Sigir deyarli barcha xonadonlarda bor. Qaysi o'tni yoqtirib yeyishini, qay biri zarar ekanini hamma yaxshi biladi. Xotinlar daladan g'aramlab o't o'rib kelishganini ko'p ko'rganman. Taom tayyorlagandagi sabzavot po'choqlariyu ovqatning qolgan-qutgani berilaveradi. O'zimizning sigirlarga nima bersangiz yeyaveradi, kurmakni, sho'rani, makka poyasini, ajriqni, bedani, arpani yoqtiradi. Ajriq tezda suvsatadi, kurmak poyasi suvli bo'lgani uchun sug'ormasangiz ham bo'laveradi. Semizo't ichini o'tkazib yuboradi, bangidevona miyasini aynitib qo'yadi. Tol, behi, gilos, uzum barglarini oxuriga solsa bo'ladi, terak bargini bermagin, zahari bor deydilar.

– Xudoi taoloning qudratini ko'r, – deyishadi kishilar. – O'tlab-semiradigan, har yili o'z-o'zidan ko'payadigan go'shtni qayerda ko'rgansan?

Mol-holga bunday baho meni hayratlantiradi.

– So'ymasang, sut-qatiq berib yuraveradi. So'ysang – go'sht-da...

Kuzda bolalar mol-holni dala-tuzga haydashadi. Bizning sigir esli, kech kirgan mahal uyni o'zi topib keladi.

Sigir tug'sa quvonishadi, oqlik deyishadi. Sutining rangi oq bo'lgani uchunmi? Buzoq oyoqlari titrab-titrab, mayishib-mayishib sigirga intiladi. Sigir uni rosa yalab-yulqaydi, shunda chiroyli yungida palaxsa-palaxsa, qoramtir ho'l izlar qoladi. Mana shu holat xotinlarning rahmini keltiradi. "Voy bechora, ena-da" deb, ko'zlariga yosh ham olishadi.

Sigir faqat tuqqanidan keyingina sut bera boshlashini o'shanda bilib olganman. Ungacha

har doim sut beraversa kerak deb o'ylagan ekanman.

Buzoqcha ko'zlarini bir nuqtadan uzmay, tumshug'i bilan turtib-turtib emadi. Goho qattiqroq turtsa, sigir bechora munkib ketadi, ozorlanib, boshini burib mo'raydi, ammo tepmaydi.

Ilk suti burda-burda, taxir ta'mli bo'ladi, uni yosh bolalarga berishadi.

Keyin har tong sut sog'ilaveradi.

Chelakdagi sut ustiga doka yopib, osib qo'yishadi. Ancha turgach, ustini qaymoq boylaydi. Bolalar qaymoqni sidirib olib yeyishadi.

Avvalroq ivitilgan qatiqdan ozgina solib, ustini o'rab qo'ysa, qatiq bo'ladi. Uni matoga o'rab quyoshga qo'ysa, pishloqqa aylanadi.

Sut tabiatning hamma joyida mavjud. Masalan, asalari suti. Asli qanaqa ekanini bilmayman, otam olib keladi. Lekin ta'mi taxir bo'ladi. Go'daklar, bolalar shamollasa, qoshiq uchida berishadi.

O't-o'lanu daraxtlarning ham suti bor. Momaqaymoqning och-yashil poyasi naychaga o'xshaydi, ikkiga bo'lsangiz, achchiq ta'mli oppoq suyuqlik toshib chiqadi.

Qo'y, tuya sutiniyam ichish mumkin. Echki sutini kasallarga ichirishadi. Mol, qo'y, echki sutidan qurut yasashadi. Mushuk-kuchuklarning ham suti bor, albatta. Goho dalalarning chetlarida, salqinroq joyda bolalagan it yonboshlab yotganini, ko'zi endigina ochilgan uch-to'rtta kuchukvachcha qatorasiga emib yotganini ko'rib qolasiz.

Yoz jaziramalarida qorni qappayib, zo'rg'a yurgan hayvonlarni ko'rgansiz-ku? Xotinlarning rahmi kelib, oldiga tovoqda yegulik qo'yishadi. Kechagina irillab yurgan itning zug'umi g'oyib bo'lgan, bolalar yaqiniga borsa ham mo'ltirab qaraydi. "Menga tegma, ahvolimni ko'rmayapsanmi deyapti", deyishadi xotinlar. Yegulikni yeb, keyin lapanglaganicha o'z joyiga qarab ketadi.

Umuman, sut muqaddas narsa. Yerga sut to'kilsa, ayniqsa, xotinlarning joni chiqadi, sutni to'kkan bolasini ayamay urishadi:

– Nega to'kding, bola bo'lmay o'!! Ko'zing ko'r bo'lib qoladi-ya!

Qaysarroq kimningdir fe'lidan so'z ketsa, "Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi" deb ham qo'yishadi.

Qo'shnining bolasining qulog'i og'rib qoladi.

– Qulog'iga sut tomiz!

– Uni qaydan olaman?

– Narigi qo'shnining kelini ko'zi yorigan, o'shanga aytsang beradi.

Sut tomizilsa, quloq og'rig'i barham topadi.

Qo'shni xotinni "Ko'kal xola" deb chaqirgin, deyishadi. Chunki qo'ni-qo'shnining bolasi ochqab yig'lasa, emizib qo'yaverar, sutini qizg'anmas ekan. Tegradagi uch-to'rt xonadonning bolalari shu tariqa ko'kaldosh bo'lib qolishgan. Ko'kal xola buyurgan ishini ado etgan bolalarga "Emizgan sutim halol bo'lsin" deydi, sho'xroqlarini esa "Bergan sutimga rozi bo'lmayman" deb qo'rqitadi.

Yoshi kattaroq bolalarga xotinlar "Hozir emizib qo'yaman" deb po'pisa qilishi-chi? "E, bor-e" deb to'ng'illab nari qochishadi bolalar. Chunki emizib qo'ysa, mazaxga qoladi.

Chaqaloqchalar qo'lchalari bilan onasining ko'ylagiga tirmashib olib, emib yotishadi. U mahalda nigohlari sokin bo'lib qoladi, iyaklari titrab, oqi xiyol ko'kimtir, qorachig'i katta ko'zlarini bir nuqtaga tikib, miq-miq emaverishadi.

* * *

Mana shu tarz, yomg'irdan keyingi ko'chalarning loylari aro uyga kiramiz. Yumushlar barham topib, kech mahali sandal atrofiga tizilamiz. Benihoya qiziqarli matallar vaqti keladi.

Sandal atrofida qariyalar ertak boshlashadi, shulardan biri – Nuh alayhissalom haqida.

...Bir kuni Nuh alayhissalomning xotini non yopibdi. Nonlari qip-qizarib, po'rsillab pishibdi. Tandirdan uzib savatga solayotsa, qo'li kuyib, bittasi yerga tushibdi.

– Yengchasi yo‘g‘akanmi?

Yengcha – bilakkacha yetadigan, qalinroq matodan ichiga paxta solib tikilgan uzun qo‘lqop. Bir tarafi qorayib-kuyib ketgan bo‘ladi, yomg‘irda namlansa, kuyik isi anqiydi. Xotinlar yangi pishgan issiq nonlarni o‘sha yengcha bilan uzishadi.

– Borakan-u, ammo qo‘liga kiyvolish esidan chiqqan ekan. Yoki non yopaverganidan ilma-teshik bo‘lib ketganmi?

Xullas, non yerga tushganida xotin:

– Hah, o‘lgur, – debdi

Shunda Nuh payg‘ambar aytibdiki:

– Hoy nodon, rizqniyam so‘kadimi odam? Qani, tavba qilib, nonni yerdan olib ko‘zingga surchi!

Xotin shunday qilibdi. Yerga tushgan non bo‘lagini olib, puf-puflab ko‘zga surtish odati o‘shandan qolganmish...

Matallarning ko‘pida xotinlar nodon bo‘lib tasvirlanishiga aqlim shoshadi. Tashqariga chiqqanimda ularga qiziqsinib qarayman, sirayam nodonga o‘xshashmaydi.

Payg‘ambar deyishsa, xayolimga to‘n kiyib, beliga belbog‘ bog‘lagan nuroniy, nasihatchi chollar keladi. Aytadilarki, Nuh alayhissalomning uch o‘g‘li bo‘lgan, to‘ng‘ichidan, ya‘ni bosh bo‘g‘inidan bizning ota-bobolar tarqagan ekan. U rivoyatga odamning aqli bovar qilmaydi – to‘fon qayda-yu, biz qayda?

* * *

Odamlar hamma narsani o‘zgartirib, jon ato etib olishganiga yana hayron qolasiz. Masalan, nonning joni bormidiki, gapirsa?

– Nonni teskari qo‘yma, gunoh bo‘ladi.

– Nega?

– Rizqing qiyiladi.

– Kuchukni urma!

– Nega?

– Erta bir kun Egamga sendan shikoyat qiladi. Uni kuchli, meni zaif qilib yaratuvding, urib jonimni og'ritdi, deydi.

– Qiblaga qarab choptirma.

– Nega?

– Moxov bo'qqolasan.

– Kechasi tashqariga bir o'zing chiqma.

– Nega?

– Oziqchi opketib qoladi.

“Oziqchi” nimaligini birov bilmasa-da, hamma bolalar undan qo'rqadi. Bu g'alati so'z oziq tishi bilan uyqashligi uchun, nazarimda, o'xshovsiz tirjayib, oy nuri to'kilgan kechalarda daydib yuradigan, kurak tishi og'zidan qoziqday chiqib turadigan bema'ni bir yaratiq qiyofasida gavdalanadi. Bolalarni nega opketadi, birov bilmaydi, ammo katta qozonga suv solib, qaynatib sho'rva qilib ichadi, deb qo'rqitishadi.

Qish tunlari uzundan-uzoq, bolalar sandal chetiga tiqilib olib, kattalarning vahimali hikoyalarini quloq qoqmay eshitishlarini ham aytaymi? Odamlarni adashtirib ketadigan g'alati kishilar, yo'l yoqasidagi dev, qiz qiyofasidagi ajina, qora yuzli kishi haqida-chi?

* * *

U maskan uzra tunlari yog'dulangan Oymomo – faqat shu joylarning momosi. O'zga makonlarda Oy bunaqa ko'rinmaydi, nomiyam momo emas, deydilar. Tog' orasidan qalqqan yoki adoqsiz sahrolarning Oyi butunlay boshqa ko'rinishga ega emish. Dov-daraxt isi

anqigan kechalarda, tutlaru teraklar ortidan havolangan o'zimizning oy juda aziz.

Tavba, Oy desam, xayolimda Sofiya xolam jonlanadi. Nihoyatda beozor, qalbi yorug'likka to'la mushtipar xotin edi. Sofiya xolam desam, yuksaklarda yog'du sochgan ajoyib Oymomo yodga keladi.

Tengdoshlarim bilan dala-tuzni kezar ekanman, dasht qoraqushiga ko'p duch kelardim. Boshqa qushlardan farq qilib, hakkalab yurar, xaslar orasidan bir nimalarni izlagani izlagan edi. Necha marta tosh yo kesak otganmiz, lekin biror marta ham tekizolmaganmiz. Odamlar boravermaydigan joylarga xaslardan o'rab-chirmab, xaltacha shaklida in qurardi. Men ko'rgan inlar bo'm-bo'sh, qoraqush qachonlardir unda tuxum bosib o'tirgan, nar qush yemish tashigan, so'ngra jish polaponlarini uchirma qilib, tashlab ketgan bo'lsa kerak. Dala-tuz sira o'zgarmadi, nazarimda, ming yillar avval shunday edi, endiyam shunday qolaversa kerak, deb o'ylayman.

Odamlar hayoti esa o'sha-o'sha tarzda davom etardi:

– Hoy, bola bo'lmay ket! Seni nimaga tuqqanman, dala-dashtda sanqigin debmi? Bor, ishingni qil! Hamma yumush bitta o'zimgami?

Tevarak nimaga bunaqa? Nega qush uchadigan, qumursqa o'rmlaydigan, sigir kavsh qaytaradigan, kuchuk huradigan qilib yaratilgan?

Tengdoshlar bilan ham shu mavzuda gaplashib qolamiz:

– Nimaga Xudo bizni odam qilib yaratgan?

– Bir kuni katta bo'lib, bola-chaqa ko'rsin deb.

Haqiqatan ham, o'sha mahalgacha eshitganlarim orasidagi eng to'g'ri fikr shu bo'lib tuyulardi. Butun tevarakning qilayotgan ishi faqat shugina, ya'ni dov-daraxt meva solar, kuzda barglarini to'kib uyquga ketar, bir necha yil o'tgach qurib, yo'qlik olamiga jo'nardi. Hamma narsa yaratilish va xazonga aylanish hukmi ostida ekan, odam ham shularning biri, deb o'ylash hayotni osonlashtirardi. Qilar ishing faqat rizq terish, uyga yemish tashish, bola-chaqa katta qilish, shuni eplayolsang, olam gulistonday tuyulardi. Ya'ni, zahmat chekayotgan butun elning hayoti dasht qoraqushinikidan ortiq emas edi.

Mehnatlar esa davom etardi. Samoda o'zimizning bulutlar suzar, yomg'iru qorlar yog'ar,

quyosh chiqib-botar, qishloq tepasidan shamollar yelib, tasavvurni juda olislarga – xilvat va bepoyon o'rmonlarga, ajoyibot o'lkalariga, ummonlaru muzlar makonlariga olib ketar, ozod-ozod, odamni sarmast qiladigan go'zalliklar diyoriga yetaklardi.

Dunyoning qayerlaridadir ko'z ko'rib quloq eshitmagan ajoyibotlar bor, biz yashagan qishloq esa tussiz, zerikarli, ipidan-ignasigacha o'rganib chiqilgan, ko'nikilgan makon bo'lib tuyulardi-da.

– Hoy yashshamagur! Tashla kitobingni! O'qib odam bo'larmiding?

– Bor, molga o't o'rib kel!

– Yerni chopib qo'ymabsan-ku, ahmoq? Necha marta aytaman senga?

Bunday koyishlar bolalarga ko'p ham ta'sir qilavermas, imi-jimida yumushlarini bitirib, yana o'yinga mashg'ul bo'lib ketaverishardi.

O'smir o'n ikki yoshida haliyam bola bo'ladi. O'n to'rtga o'tganida esa mo'ylovi sabza uradi, yuzigayu peshanasiga bo'jamalar toshib, ovozi do'rillay boshlaganida kattalar nasihatga o'tishadi:

– Kap-katta bo'lib qolding, endi ro'zg'orgayam qarash. Shu turishda yuravermay, biror ishning boshini tutishni o'yla.

Qanaqa ishning boshini tutishga aql yetavermaydi. Lekin kattalar nima desa shu: indamay bo'yin egib ketaverasiz. Yo tomorqada yetilgan meva-sabzavotlarni opchiqib sotasiz, mol-qo'y semirtirasiz, terak eksangiz, besh-olti yilda imoratga yarab qoladi. Bunga bo'yningiz yor bermasa, ana, suvchilik yoki traktorchilik qiling... Otangiz to'g'ri aytibdi, rostdan ham, bola emassiz-ku?

* * *

Tavba, qush desalar, xayolimda uyasida tuxum bosib o'tirgan dasht qoraqushiyu qora chumchuqlar namoyon bo'ladi. U manzaralarning harakatli ekani ajab.

Sigir desalar pov-pov ko'pirib sog'ilgan, keyin nimagadir yerga to'kilgan sut manzarasini

ko'raman.

Nega aynan to'kilgan sut jonlanishiga aqlim yetmaydi.

Insonlarning qiyofalari ham ma'lum voqea-hodisalar bilan birlashib ketgan, kimni eslamay, qaysidir voqeaga bog'liq holda jonlanadi. Ubay akani shamollar bilan birga tasavvur qilaman, Sofiya xolam oy manzarasi bilan uyqash, Dashti Qipchoqdan kelgan suluv qiz bol va asal hosil qiladi, onamni yalpiz, rayhon hamda gul ochgan chechaklar yonida, otamni qo'lida bolta yoki arra, kesilgan daraxt shoxlari yoki yaxshilab ag'darilib chiqilgan maydon o'rtasida ko'raman. O'zimni mana shu manzaralar ichida uchib yurgan bol arisiday tasavvur qilaman, qay manzaraga yaqinlashsam, o'sha kattalashib, mayda-chuydalarigacha namoyon bo'ladi.

Yana ancha yillar o'tgach, ulg'ayganimdan so'ng ham sira o'zgarmagan dalalar aro boshqa ufqlar yuz ko'rsatishi xayolimga kelmas edi. Hali yana ko'p voqealar xotiraga muhrlanishini, fursat bo'lganida har voqeani turgan joyidan olib aylantirib tomosha qila olish mumkinligidan xabarim yo'q edi-da. Kishilar olamdan bexabar, shu mitti hududda oddiygina umr kechirar edilar. Hech kimning xayoliga kelmas edi: na halokatli bilimlar, hayot o'rniga o'lim-u, baraka o'rniga falokat keltiruvchi rizqlar, na dunyo bo'ylab kezib yurgan son-sanoqsiz kishilar, na havolarni yangilab, fasllarni o'zgartirib esadigan mavsum shamollari...

Laylatulqadr

O'sha yili ro'za kuzga to'g'ri kelgan edi.

Osmon to'la qush, chirqillay-chirqillay qaylargadir uchib ketishardi. Har birining ko'chishining ma'lum vaqti bormi? Qaldirg'ochlar, ko'kqarg'alar, turnalar, o'rdaklar, g'ozlar, laylaklar ko'chganiga guvoh bo'lganman. Baland teraklaru simyog'ochlarga savatday in quradigan bu qush goho tumshug'ida ilon ko'tarib uchganini ham ko'rganman. Go'yo odamlar eshitmaydigan bir hukmi ilohiy kelib, bari yoppasiga juda olislarga ravona bo'lishardi.

Lekin ketmaydiganlari ham bor-ku? Musichayu chumchuqlar qishli-qirovli kunlarda ham uchib-qo'nib don-dun terishar, odamlar dasturxondagi uvoqlarni shularga rizq bo'lsin deya atay qor ustiga qoqishardi. Lekin qish qattiq kelgan mahallarda muzlab o'lib qolgan qushlarni ham ko'rasiz.

Kattalar bolalarni ro'za tutishga undashar, tutishmasa ko'p ham majburlayvermas edilar. Menga ham bobom uch-to'rt marta po'pisa qildi, qo'rqqanimdan "Xo'p" desam ham, saldan keyin qornim ochqab, taxta qutidagi nonlardan birini bildirmasdan qo'ynimga solib tomorqadagi makkapoyalar ortiga o'tib shosha-pisha yeb olganim esimda.

Kishilar nima uchun bunchalar qiynalib ro'za tutishlariga aqlim yetmasdi. Odamlar och yurishidan Xudoga nima naf? Xudo haqidagi tasavvurim ham yo'q, hamma undan qo'rqishini bilardim, chunki kishilar sal narsaga "Xudodan qo'rqmaysanmi?" deb gapirishganini ko'p eshitganman. Nazarimda, ro'za tutish ham shu qo'rquv tufayli edi, men bobomning ko'zini shamg'alat qilib qornimni to'ydirib olganimdan keyin qo'l yoki oyog'im ishlamay qolishini xavotirlanib rosa kutdim, ammo hech nima ro'y bermagach, "Kattalar aldashibdi" degan to'xtamga keldim.

Ro'za oxiray boshlaganida odamlar orasida laylatulqadr va Xizr buva haqidagi gaplar paydo bo'ldi. Xizr – o'zimizning oqsoqollarga o'xshab ketadigan bir chol bo'lib, ko'zga goh ko'rinib, goh ko'rinmay, mana shunday kechalarda el oralab yurar, ro'para kelganlarning mushkullarini oson qilar emish.

Kechasi odamlar duo qilib o'tirishar ekan, Laylatulqadrni laylakka o'xshagan bir qush deb o'ylaganman. Qanotini qoqib o'tib ketsa, odamlarning duosi ijobat bo'lar, hatto ushlab o'tirgan narsasi tillaga aylanib qolarmish.

Bu borada qo'rqinchli gaplar ham boriydi.

Bir xotin bolasini emizib o'tirsa, Laylatulqadr kepqolibdi. Suyunganidan har narsalarni tilabdi, bir mahal bolasiga qarasa, allaqachon tillaga aylanib qolganmish. "Voydod, boylik so'ramay men o'lay" deya tilla bolani quchoqlab faryod ura-ura, aqldan ozganmish.

Kimlardir uni kutib tomda uxlashganini ham aytishadi. Avvallari shunday kechalarda men ham uxlab qolar edim. Bu safar qiziqib uxlamadim.

Tun yarmiga borgan mahal, tomorqa adog'idan, qo'shnining teraklari ortidan oy samoga ko'tarilgan, Ubay aka uyiga chiqib ketgan, Xolis ayam bilan Sofiya xolam so'rida edilar.

Bir mahal kunbotar taraf yallig'lanib ketdi. Qip-qizil, g'alati yallig' edi u. Yo'q, sado kelmadi, shunchaki yallig'landi. Osmonning yarmini enlab oldi. Keyin orasidan juda yorug' bir nima tikkasiga samoga ko'tarildi.

– Voy, ana Laylatulqadr! – dedi Sofiya xolam. Keyin qo'llari qaltiraganicha duoga qo'l ochib yig'lab yubordi:

– Ey Xudojon, o'zingga shukr! O'zingga benihoya shukr!

Laylatulqadr shunaqa bo'lar ekan-da! Yallig'ning haybati aqlimni shoshirdi, ma'lum vaqtdan keyin so'nsa-da, odamlar hayajonlanib javrashar, ko'pchilik uxlamagan, g'ala-g'ovur tinmasdi.

* * *

Oradan bir necha kun o'tgach, o'sha tunda yallig'langan sinoatning, shuncha kishilarni yig'lashga, qismat xo'rliklari aro yolvorishga undagan hodisaning siri ochildi.

Bizdan olisda, o'sha asal yuzli qizaloq yashaydigan Dashti Qipchoq tomonlarda harbiylar bor ekan. Yer ostiga raketalar joylashtirilgan ekan. Harbiylar istagani on yer surilib, tubidagi raketa samoga otilarmish. Juda bahaybat, uzoqqa uchadigan narsa bo'lar ekan. Borib tushgan joyining kulini ko'kka sovurib yuboradigan qudratga ega emish...

Laylatulqadr hamda Xizr haqida bundan boshqa, kulgiliroq gap-so'zlar ham yurardi. Shu qishloqlik bir yigit kechasi egatlarga suv tarab yurgan ekan, ittifoqo bir buva suvdan xabar olgani chiqibdi. Dahana tollar ostida ekan. Tunda, oy yorug'ida borayotsa, haligi yigit buvani ko'rib, tili kalimaga kelmasdan serrayib turib qolibdi. Keyin jonholatda yugurib kelib, ikki qo'llab bosh barmog'ini ushlab olibdi.

– Qanaqa ahmoq bolasan, qo'yvor qo'limni! – desayam qo'yvormasmish.

– Jon buva, duo qiling, ro'zg'orimga baraka kirsin. Zahmatda qiynalib ketdik. Ikkita qizim bor, bitta o'g'il ham bersin! – dermish yolvorib.

Shu tariqa, tuproq ko'chalar, guvalak devorlar, loysuvoq uylar, issiqda hansiragan dala-tuz, har narsaga darrov ishonaveradigan sodda odamlar aro ulg'ayardik tengu to'sh. Xizri Ilyos, Nuh payg'ambar, qadr kechalari, odamlar og'zida yuradigan turli-tuman rivoyatlar tobora uzoqlashib, olislashib borardi.

Sofiya xolam

Sofiya xolam – esini tanib-tanimasdan turmushga chiqqan qishloq ayoli edi.

Danakdayligidan onasining yoniga kirib mitti mushtchalari bilan xamir qorgan, hovli supurgan, tomorqada o't yulgan, sigir-qo'ylarga qaragan, qishning sovuqlarida o'tin ko'tarib sandalga olov qalagan... shu mehnatlar aro bir kuni kelin bo'lishni, keng-mo'l, issiq uyda bolalarini katta qilishni orzulagan bo'lsa ajabmas.

Men esimni taniganimda esa kap-katta xotinga aylangan, birinchi turmushi buzilib, eri qiz tuqqani uchun haydab yuborgach, oradan qanchadir vaqt o'tib, yoshi ancha katta boshqa bir odamga turmushga chiqqan edi.

Turmushga chiqqach, uyimizga kelishlari ham sersilib qoldi. Avvallari ko'p kelardi. "To'lpoq, vazmin bola eding, daladan qaytishda seni qo'msab ulovdan tushib qolib, shuncha yo'lga piyoda kelar, ko'tarib bag'rimga bosganimdan keyingina shom qorong'isida uyimga ketardim" degan edi bir paytlar. Bu gaplarning ma'nosiga o'shanda aqlim yetsa qaniydi? Uning ma'nosi – shom qorong'isida, charchagan bo'lishiga qaramasdan ancha yo'l bosib, bir-ikki yoshga to'lib to'lmagan jiyani ko'rishga kelgan xolaning iddaosi emas, balki "Seni judayam yaxshi ko'rardim" degan iqror ekanini men nodon, keyinroq anglab yetdim.

Sofiya xolam diyonatli, pokiza ayol edi. Unikiga o'ynagani borardim. Borsam, darrov dasturxon yozib, qand-qurs, turshak opchiqardi. "Jiyanim meni ko'rgani keldi" deb quvonib ketardi-da. Xolamning tomorqasida katta tut bor edi, shoxlariga chumchuqlar in qurgan bo'lib, polaponlarini olishga qiziqardik. Lekin tepaga chiqqani qo'rqardik, chunki u yerda katta ilon boriydi. Ilondan hayiqishimiz beshbattar qiziqtirardi, tut ostiga yaqin borolmasdan, uzoqroqdan turib shoxlariga o'ralib olganmi-yo'qmi deya kuzatardik. Mabodo kimdir yurak yutib tut tanasiga o'rlagani on, biroz kutib turgach, barimiz baravariga "Ilon!" deb baqirsak, botir do'stimiz o'sha zahoti o'zini pastga tashlab tiraqaylab qochsa, qotib-qotib kulardik. Bu yoqda ilon vahimasidan titrasak, u yoqda xolam koyib qolardi:

– Hoy bolalar, tegmanglar! Bechorani Xudo shunaqa, sudralib yuradigan qilib yaratgan. Rizqini izlab yurgan bir maxluq-da, sho'rlik...

Xolamning ismi boshqa ayollar ismiga o'xshamasligi hayron qoldirardi. Bizning qishloqdagi ayollarning ismlari Oyniso, Turg'uniso, Xosiyat, Nazira, Ibodat... bo'lib, begonaroq bunday ismni hech nimadan xabari yo'q, umrini dalada dehqonchilik bilan o'tkazgan buvam qaydan topib qo'yaqolgan ekan? Tabiiyki, ma'nosini ham bilmasdim. Ayol ismiga "oy" yoki "xon" qo'shib aytilgani uchun, xolamni hamma "Sofiyaxon" yoki "Sofiyaoy" deb chaqirardi, qishloq tilida u allaqachon "Sapiya"ga aylanib ketgan edi. Sofiyaoy degan ism menga ko'proq yoqqani uchun, tungi bulutlar orasidan ko'ringan xayoliy to'lin oy manzarasini yodimga

soladi.

Dasturxon ustida goho tanbeh ham berardi:

- Nonni o'ng qo'ling bilan ye!
- Chap qo'lim bilan yesam nima qipti?
- Chap qo'ling bilan yesang, qurib shol bo'lib qoladi.

Men esa bekitiqcha chap qo'lim bilan nonni ushlab ko'rar, qo'lim shol bo'lib qolmagach, xolamning gaplariga kulardim.

Boshqa o'g'itlari ham shunaqa edi:

- Kalishni o'ng oyog'ingdan kiy!
- Nimaga?
- Oyog'ing ishlamay qoladi!
- Chumolini o'ldirma, meni nimaga o'ldirding, deb qarg'aydi!
- O'tlarni payhon qilma, ularning ham joni bor, xudo deydi!

Tabiiyki, xolamning taqiqlarining tersini qilib ko'rar va qo'rquvlari behuda ekaniga, meni aldaganiga ishonardim.

Xolamning nazarida, har narsaning joni bor va hammasi "Xudo" deb unib-o'sar edi.

Men ulg'ayganimda xolam kampir bo'lib qolgan edi. U nurni, u yuzlarni haligacha sog'inaman. Goho tun-kechalarda birdaniga ko'rgim kelib qoladi. Mayin jilmayishini, yuzidagi poklik va musaffolikni qo'msayman.

Ulg'aygach, u ismning mazmunidan xabar topdim. "Sofiya" – yunonchada "ilohiy donolik", arabchada "musaffolik" degan ma'nolarni anglatishini bilganimda, "Albatta xolamga aytaman, eshitib suyunadi" deb o'ylaganman. U mahal xolamning menga mehri yanada ortgan, "polvon bolam" deb suyur edi. Bir kuni yo'qlab borganimda shularni hikoya qilib

berdim.

– Xola, ismingizning ma’nosi judayam bo’lakcha ekan.

– Qanaqa ekan?

– Qadim zamonlarda Sofiya degan bir qiz tushida oyning yerga tushganini ko’ribdi²[ii]. So’ng tush o’ngidan kelibdi, ya’ni muborak bir kishiga turmushga chiqibdi.

– Rostdanmi? – xolamning ko’zlari jiqqa yoshga to’lib ketdi. – Shunaqa voqea rostdan ham bo’lgan ekanmi?

– Ha, xola, bo’lgan ekan.

– Katta kitoblardan o’qidingmi?

– Ha, katta kitoblardan o’qidim.

– Ey Xudoyim, – dedi xolam, ovozi titrab, birdaniga ko’zining yoshi duv oqib. – Meni shunaqa qilib yaratgan edingmi?

– Xola, nimaga yig’layapsiz? – deb so’radim tushunmasdan, biror nojo’ya gap aytib qo’ydimmi deya xavotirga tushib.

– Men ham ko’rgan edim, – dedi ko’zlari jiqqa yosh xolam, yuziga g’ayrioddiy bir nur inib. – Kichkina qizaloq edim. Tushimga oppoq soqolli bir chol kirgan edi. O’shani imosi bilan oy yerga tushuvdi...

– Yo’g’-e?

– Ha, bolam, – dedi. – U sirayam katta emas, men tengi bir qizcha ekan. Ikkalamiz qo’l ushlab, shudring bosgan tomorqalarda rosa o’ynaganmiz. Menga o’zining hikoyasini ham aytib bergan.

– Qanaqa hikoya ekan?

– Oy hikoyasi bo’ladi-yu, oddiy bo’lsinmi? Juda ajoyib edi.

– Aytib bering.

– Esimda qolgani shuki, – jilmaydi xolam. – sen ham, men ham bejiz yaralmaganmiz, degan edi. Undan “Bepoyon osmonda bir o‘zing zerikmaysanmi” deb so‘raganimda, “Zerikaman, chunki sendaqa o‘rtog‘im yo‘q-da” degani esimda. Bir kuni Xudoning suygan bir bandasiga turmushga chiqaman, mening yaralishimning hikmati o‘sha bandaning xizmatini qilish, degan edi. Yana, sen ham ajoyib bir kishiga turmushga chiqasan, hayot osmonida oyday balqib, bir etak bolalaring bo‘ladi, to hayoting so‘ngigacha insonlar qalbini yoritib turasan, dedi. Ammo o‘zi haqida neki aytgan bo‘lsa, ko‘pi unutilgan. Balki unutmagandirman? Balki u aytmagan-u, o‘zim shunaqa xayol qilgandirman? Shularni aytgach, “Yur, o‘ynaymiz” deganida qo‘shilib chopganim, shudringlar oyoqlarimni ho‘l qilgani ham esimda. U mahal kichkinagina qizaloq edim-da... – xo‘rsindi xolam. – Mana, endi qaridim...

Xolamning gaplari u haqdagi tasavvurlarimni butkul o‘zgartirib yubordi. Endi har gal borganimda uni sevintiradigan mayda-chuydalar ko‘tarib borar, ozg‘in qo‘llarini kaftimga olib silar, yuzimga surar, ko‘zimga bosib tavof qilar edim.

Sofiya xolam deyilganida bol, sut va oy bir joyga jamlangani-chi? So‘zi boldan shirin, qalbi sutday oq, yuzi oyday malohatli bo‘lib qalbimning ichidan o‘rin olgani-chi. Yo‘qsa, bug‘doyrang, ozg‘indan kelgan, baland bo‘yli bir xotin edi.

Ubay aka

Ubay aka bizning qo‘shnimiz, baquvvat, yelkalari keng, ovozi qattiq kishi edi.

Asli ismi Ubayd bo‘lsa bordir, xalq uni o‘ziga moslab “Ubay” deb olgan, gohida “Ubaydin” deb ham chaqirishardi.

Otasi issiq kunlarda uyining oldidagi taxta supaga chiqib o‘tiraveradigan indamas qariya bo‘lib, bizlar undan qo‘rqardik. Bir mahallar urushga borgan, tank haydagan deyishsa-da, turish-turmushi qahramonlarga sira o‘xshamasdi-da. Ko‘chadan-o‘tgan ketganlarning ba‘zilari bosh liqillatib salom berib, ba‘zilari ulovidan tushib qo‘shqo‘llab ko‘rishib o‘tishlarini ham ko‘rardig-u, keyin yana o‘z o‘yinlarimizga – teraklari o‘sib yotgan qarovsiz bog‘larga jo‘nab qolardik. Bog‘ teraklarining tubida ulkan bargli otquloqlar, doimo soya tushib turgani uchun rangi aynib ketgan o‘rgimchaklar va ularning katta to‘rlari aro xuddi ertaklar

mamlakatidagi kabi kezardik, u yerda uzoq o'ynay olmasdan, soyalar va tussizliklar ko'lankalari aro yana quyosh mo'l-ko'l charaqlab turgan, mevalari g'arq pishgan o'z dalalarimizga chopaqolardik.

Ubay akaning xotini, bolalari ham boriydi. Xolis aya baland bo'yli, kelishgan ayol bo'lib, Ubay akaning zug'um va tazyiqlariga lom-mim demay bardosh beradigan va o'sha zug'umlar aro bolalarini tishida tishlab katta qilayotgan bir xotin edi.

Qisqasi, el qatori, bola-chaqa tashvishidagi bir oila. Oftobshuvoqda uzzukun o'tiradigan, urush ko'rgan keksa ota, uy ishlari bilan andarmon xotin, birin-ketin yetilib kelayotgan odobli bolalar... ko'chadan beri kelmaydigan Ubay aka.

Mahalladagilar Ubay aka bilan aytishib qolishdan ehtiyot bo'lar edilar. Sababi, jini bor deyishardi. Ko'zining oqidagi xoli o'sha jin bo'lsa kerak, degan gaplarni eshitganmiz. Haqiqatan ham, Ubay akaning ko'ziga tik qarab turish qiyin, g'alati bir jununi boriydi.

Uyimizda yumushlar bilan mashg'ul ekanmiz, ba'zan baqirishlari eshitilib qolardi:

– He, turqingga seni!..

Nimaga so'kinganini bilmayman, saldan keyin Xolis aya biznikiga qochib chiqar, qo'rqib-hayiqib, rangi bo'zday oqarib erining jahldan tushishini kutardi. Bir-ikki marta hovlisida uni quvganlarini eslayman, baquvvat erkak pishqirib baqirar, zaif xotini esa oldiga tushib, yig'lab qochar edi.

O'sha shiddatiyu jasorati bilan nimagadir onamdan hayiqardi. Goh janjal avjiga chiqqanida onam ularnikiga kirib:

– Hu, Ubay bo'lmay o'! – deb qarg'ar, keyin Xolis ayani yupatardi.

Ubay akadan men ham qo'rqardim. Kafti nihoyatda ulkan, birov "Ha?" deb ko'rishgani qo'l uzatsa, qo'shqo'llab ko'rishishimiz kerakligi aqlimizga quyilgan, u odam esa biz kabi bolalarni qo'lini qattiq siqar, shunda et ezilib og'risa, xoxolab kulardi.

Salga lov etib yonib, janjal chiqaraverardi-da. Oqsoqollar bizlarga urishib-talashmanglar deb nasihat qilishar, ammo kuppa-kunduz kuni ko'chada yoqavayron bo'g'ishayotgan kishilarni ko'rsak esimiz og'ib, na qochib ketishni, na yaqin borishni bilmasdan, ham qo'rquv, ham qiziqish bilan uzoqroqdan tomosha qilardik. Birov insofsizlik qilsa, misol uchun, bozorda

mosh-guruchga tosh qirintisi qo'shib sotsa yoki qo'yni semiz ko'rsatish uchun jonivorni orqa tuyog'i payining ustidan teshib, teri ostiga havo yuborsa, kimdir boshqa birovni aldab chuv tushirib ketsa, qayerda bo'lishidan qat'i nazar, hammaning ichida bo'ralab so'kar, keyin boshini chayqab-chayqab:

– Enangni ko'rding, hoy xalq! – deb baqirardi. – Bir-biringni aldamaydigan bo'lmaguningcha, odam o'rnida ko'rmaguningcha odam bo'lmaysan!

Ha, zo'r edi, urishqoq edi, uncha-muncha kishi bas kelolmas, ammo hassasiga tayanib zo'rg'a yuradigan chollardan hayiqardi. Chollar koyib berishsa, xo'p deb bosh egib, itoatkor bo'lib qolar, o'sha bosh egganicha uyiga qarab jo'nardi.

Bir kuni bostirma ostidagi buqa arqonini uzib, odamlarni quva ketdi. Ubay aka uyda edi. Hamma qochsa ham oyoqlarini kerib, buqaga qovoq uyib qarab turaverdi. Bir mahal hayvon unga qarab intildi. Qarshisiga kelib, yer tepinib shoxlashga chog'langanida, Ubay aka "He, o'sha turqingga" deb baqirib, oldinga tashlandi-yu, ulkan mushti bilan peshonasiga bir urgan edi, buqa gangib qoldi. Bu odamdagi qudratni ko'rsangiz edi! Shoxidan qayirib yerga ag'dardi, keyin bo'yniga minib, hanuz qayirganicha "Xolis, arqon opke!" deb baqirdi. Ajabki, buqa ham yuvosh tortib qoldi, shundan keyin Ubay akani ko'rsa, hayiqib ortiga tisariladigan odat chiqardi.

– Bu buqa endi odam bo'lmaydi, – dedi Ubay aka, xoxolab kulib. – Shoxi qayrildi-yu? Qassobni chaqirib so'ydirib, go'shtini sotvorsang, savobga qolasan!

Yana esimda qolgani: pastak valishlarda yetilgan, nimagadir achqimtir ta'mli qora-ko'kish uzumlar, mazasi tilni yoradigan tukli shaftolilar bo'lib, Ubay akanikida mevali daraxt yo'q edi, yoki bor bo'lsa ham bir-ikkita bo'lsa kerak. Balki hamma qo'shnilarning bog'u bog'chalariga birin-sirin bosh suqib, yeyishga arzigulik shirin ta'mli bir nima axtarganimizda Ubay akadan qo'rqib, hovlisiga kirmagandirmiz? U yog'i esimda yo'q. Hozir o'ylab qaragam, xayolimda Ubay akaning bo'ralab so'kinishlariyu Xolis ayaning mumsik qiyofasi qolibdi, xolos.

* * *

"Ubay o'zini ko'rsatgisi kelaveradi", deyishardi kishilar.

Yolg'iz o'g'il edi-da. Xolis ayaning uka-singillari kelib, hovli-dala ishlariga yordamlashishardi. Adashmasam, ayaning bir inisi ham boriydi, uzun bo'yli, ozg'in kishi... Ubay aka yerga, mol-holga ham qaramasdi, ko'pincha ayaning uyida o'sha ukasi, singlisi yer chopishar, ekin ekishar, ammo uyning erkagi diqqat qilmagach, bir nima unarmidi? Yozda tomorqalar saranjom-sarishta bo'lgani holda Ubay akaniki qarovsiz bo'lib chiqardi. Yolg'iz aya ularni eplay olmasdi, albatta. Bolalar esa yosh edi, katta o'g'li singlimning, o'rtanchasi ukamning sinfdoshi bo'lib, birga tushgan suratlari hozirgacha bor: uch yashar, ishtonsiz ikki bolakayning iljayib turgan surati.

Mening aqlim sal avvalroq kirgan, shekilli, goho Ubay aka yoniga chaqirib, surishtirardi:

– Ishlar qalay, ukam?

– Yaxshi.

– Qachon endi uylanasiz?

Mana shu savolga orim kelardi. To'rsayganimni ko'rib Ubay aka shashtidan tushardi, qarshisidagi xivchinday ozg'in bolaga zug'um o'tkazgisi kelmasmidi, harqalay:

– Uylansangiz, burningiz ko'tarilib ketmasin-a? – deb qo'yardi.

Burun ko'tarilib ketishi nimaligini bilib olgan edim. Bu jumalani ilk bor qachon eshitganimni eslolmayman, ammo burunning ko'tarilishi – odam boshini orqasiga xiyol tashlab, boshqalarga burnining uchidan nazar tashlashini, ya'ni kibrlanishni bildirardi.

Oradan biroz vaqt o'tib, Ubay aka qaygadir ishga kirdi.

Endi baqirishlari kamroq eshitilar, chunki uzzukun o'sha ishida mashg'ul edi. Tomorqa yanada qarovsiz bo'lib qoldi, ota qurgan uy yanada cho'kdi. Orada buva ham olamdan o'tib ketdi. Har bahorda Ubay akaning o'g'illari uy devorini ohak bilan oqlashar, tomorqa esa o'sha ahvolda yotaverardi. Ubay uy qurmadi, deyishardi odamlar. Ota o'g'limga deb qurgach, bolayam vaqti kelib imorat ko'taradi. Ubay aka uy qurmadi-yu, to'satdan darvozasi oldida ko'k rangli yap-yangi mashina paydo bo'ldi.

“Ubay moshina olibdi!”

Qay tarz olganiga hamma hayron edi. Mashina paydo bo'lgach, Ubay aka bir-ikki oy

ehtiyotlab minib yurdi, keyin u ham qarovsiz holatga keldi. Bir kuni, hammamiz ko'chada edik, shom qorong'isi tushib ulgurgan, yozning issiq oqshomi, tevarakni dog' bo'lgan yog' isi tutgan, qaldirg'ochlar yer bag'irlab uchgan mahal... uzoqda bir mashina ko'rindi-da, shu tarafga qarab o'qday uchib kela boshladi.

“Mast kelyapti, qoch”, deb qochdik.

Mashina yonimizdan g'uvillab o'tib, to'ppa-to'g'ri simyog'ochga borib urildi. Qarsillagan ovoz chiqdi, eshigi ochilib, ichidan Ubay aka tushdi. Oyog'ida zo'rg'a turardi. Qiyshayib yotgan moshinaga bir zum qarab turdi-da, keyin qattiq tepdi:

– He o'sha, turqingga seni!..

O'zi uyiga kirib ketdi.

Mashina ertalabgacha shu zayl turdi. Ertalab nima qilishganini bilmayman, chiqib qaraganimda yerda oyna siniqlari yotar, mashina esa yo'q edi.

Bolalar o'zaro Ubay akaning qilig'ini aytib kulishar, hamma orzu qilib yuradigan ajoyib mashinani bir pulga olmaganiga hayron qolar edik. Oradan yana bir-ikki oy o'tib, Ubay aka yana bitta mashina oldi. Eskisi uyining kiraverishda chang bosib rosa turdi, Ubay aka esa yangisini minib yuraverdi.

Ammo uy-joyiga yana qaramadi.

Mahalladagilarning ko'pi nasihatni yaxshi ko'radigan kishilar edi, shulardan bir-ikkitasi unga nasihat qilmoqchi bo'lgan ekan, Ubay aka shunaqa bo'ralab so'kibdiki, naryog'i yo'q.

Mahallamizning yoshi ulug'lari xushmuomala, og'ir-vazmin, biz kabi bolalarga odob-tarbiyaning o'rnagi bo'lib ko'rinsa-da, Ubay akaning ters fe'liga hech tushunmasdik.

Keyin olisga, o'qishga ketdim. So'lim, ko'kalamzor shu maskanimdan uzoqlashdim, begona jilvalar ko'zni qamashtirdi. Tog'ning viqoriyu go'zalligini uzoqdan ko'r, deydilar, qishlog'im ko'zimga benihoya go'zal, odamlari benihoya ajoyib ko'rina boshladi.

Ketayotganimda Ubay aka:

– Ha, mayli, – dedi. – Dunyo ko'ring, ammo burningiz ko'tarilib ketmasin-a? Qishloqni

esdan chiqarib qo'ymang.

– Xo'p.

– Yashang, – dedi u birdan to'lqinlanib. – Men Ubaydinman, bilib oling. Menga bukilganga yetti bukilaman, boshini ko'targanga o'n baravar bosh ko'taraman. Shuniyam unutmangiz bas.

...O'sha mahallar Xolis aya... olamdan o'tib qoldi.

Shunaqangi ich-ichimdan achindim-ki!

Ikki yuzida kulgichi bor, istarali edi-ya! Tandiri bizning devorga tutash, lang'illatib o't yoqqanlari, issiq nonlaridan olib chiqqanlari, onam bir nima deb hazillashsa sharaqlab kulganlari esimda. Bola ekanman, onam "Bor, Xolisxonnikiga kirib xamirturush opchiq" der edi, aya xamirturushga qo'shib turshakmi-mevami berardi. Hazil-huzulni yaxshi ko'radigan xotin edi, bo'ychan, ko'rkam edi. Jilmayib gaplashardi, men uning qovoq uyganini yo jahl bilan to'rsayganini hech ko'rmaganman. Yo'qsa, biz kabi bolakaylarga ba'zi kishilar yolg'ondakam po'pisa ham qilishar edi-da.

Marosimlar o'tgach, bir kuni xabar olgani kirdim. Ubay aka kiraverishdagi uychada o'tirgan ekan. Kirib, fotiha qildik. Ubay aka birdan jonlanib ketdi:

– Qani turing, anavi choynakni bu yoqqa oling-chi.

Olib berdim.

– Nonni sindiring, piyoladagi shamani to'king.

Aytganini qilgach, Ubay aka menga choy quyib uzatdi-da:

– Ana, haliyam o'zimizni bolasiz, – dedi qoniqish bilan.

Atay qilganini bilib turardim.

– Xolis yaxshi xotin edi, – dedi keyin, o'ylanib. – Indamaygina yashab, indamaygina o'ldi-qoldi. Boshqa xotin olsammikin?

Ko'zlariga qarab, bu g'alati savolni menga emas, o'ziga berayotganini sezdim.

– Yo'q, endi bo'lmaydi, – dedi keyin.

– Sizga bir gap aytaymi? – dedi katta boshini quyi solintirib, piyolada choyni aylantirib. – Eskilarning bir gapi bor: xotinga zug'um o'tkazsangiz, qariganingizda o'chini oladi. O'shanchun bir qattiq, bir shirin gapirishingiz kerak.

Hadeb yaxshi gapiraversangiz, o'zidan ketadi, erim nima desam ko'nadi deb havolanadi. Hadeb zug'um qilaversangiz, tosh ostidagi maysaday ezilib ketadi, hayotdan ko'ngli soviydi. Mana shu ikkalasining o'rtasida bo'lasiz.

Ukam, men Xolisga ko'p zug'um qildim. Netayki, tushunib yetganimda u yo'q. Endi yana uylanib, shu tutumni tutay desam, baribir Xolis bo'larmidi?

– Yaxshisi, men ham ketaman, – dedi keyin, birdaniga kulimsirab. – Xolis hozir jannatda bo'lsa kerak.

Jannatdagi xotinlar qanaqa yashashar ekan, bilmayman-u... ammo Xolisim menga ko'zi to'rt bo'lib o'tirganiga aqlim yetadi.

Jannat ham bir bog'u bo'ston bo'lsa kerak-da. O'sha yerda yumushlarini bajarib yurgandir?

Lop etib borib qolsam, suyunib ketsa ajabmas. Atrofi har qancha chiroyli bo'lsayam, baribir eri bu yoqda-ku, tatirmidi?

Nima qilsayam, ko'z ochib ko'rganiman, borib qolsam, yuz-ko'zi porlab, pitirlab qolar? Hayotdaligida ishdan kelsam shunaqa bo'lardi. O'zidan ketmasin deb yolg'ondakam qovoq uyib, teskari qarab iljayib qo'yardim.

Eh, ukam... Hozir o'ylasam, ichimda allaqancha yaxshi gaplar bor ekan, o'shalarni aytmabman-da, deb afsuslanaman. Umr o'tib ketar ekan-ku?

Borib qolsam, o'sha yoqda aytarman deb ham o'ylayman.

Qanaqa gapirishimni tasavvur qilsam, kulgim keladi. Meni-ku xudoyim jannatiga kiritmasa kerak, ammo xotinimni ko'rgani keldim, desam-chi? Kiritmasmidi? Er-xotinni bir-biriga intizor qilib qo'yarmidi? O'rtada nikoh bor-u?

Enam ham jannatda bo'lsa kerak. Ammo Xolis boshqa joyda, enam boshqa joyda. Tasavvurimda enam o'sha yoqdayam non yopayotganday tuyuladi. Tandirda qizargan issiq nonlar. Men borsam, "Voy, onang cho'ring bo'lsin" deb darrov yo'l-yo'l dasturxonini yozib, choy damlab kelib, keyin "Hozir somsayam yopib beraman, o'tirib turgin-a" deb shoshapisha tandir boshiga ketadiganga o'xshaydi.

Qaydam, o'ylayman-u, sira aqlim yetmaydi. Ichim to'la shiddat-u, nimaga sarflashga hayronman. Goho birovlariga tashlangim ham keladi. Dashtu sahrolarga, tog'u toshlarga ketsam deyman. Bir yoni tog', bir yoni o'ngir yaylovlarda chayla qurib yashagim, tog'larga qarab baqirgim, bo'rilarni tutib, bo'g'zini chaynab uzgim keladi.

Hech qayerga sig'mayman-da.

Eh, ukam... Bu dunyoda yashar holim qolmadi. Bolalar katta bo'ldi, bari ro'zg'orim deb urinib yurishibdi. Gaplashay desam, nimaniam gaplashardim? Kelinimdan tortinaman, shu uychaga kirib o'tiraveraman.

– Otamdan qo'rqar edim, – dedi keyin. – Urushdan qaytib kelgach, indamas bo'lib qolgan edi. Hech nima demasdi, o'siq qoshlari ostidan xo'mrayib tikilib turaverardi. "Ota, nimaga bunaqa qarayapsiz?" desam ham lom-mim demasdi. Hech nima qilmasdi, uy-ro'zg'orga qaramasdi, ko'rgan kuniga shukr qilib o'tiraverardi. O'zi gapirmasdi, gapi bo'lsa enam orqali yetkazardi. Shu, ulg'ayganimda "Uylansin, bir etak bola-chaqa ko'rsin" debdi. Ota-ku, gapini ikki qilib bo'larmidi? Uylanganimdan keyin ro'zg'or boshimga tushdi... Xudoga shukr, Xolis yaxshi xotin chiqdi.

– O'ylab qarasam, Xolisimni rosa yaxshi ko'rgan ekanman, – dedi xo'rsinib.

– Shu yoshga kirib, endi bildingizmi? – deb kuldim.

– Ha, qadrini ko'rsatib qo'ydi. Hayotdaligida arazlab onasinikiga ketib qolsa, bir-ikki kundan keyin baribiram qaytib keladi, deb bormas edim. Haqiqatan ham, kun o'tib, bir qo'lida tuguni, bir qo'lida bolasi bilan kirib kelaverardi. Onasi o'tganidan keyin sira ketmadi. Boradigan joyi yo'q edi-da, qaygayam borsin? Mana, endi arazlab ketgan joyini qara! – dedi xayolchan. Nimanidir eslab yana kulimsiragan edi, yuzi yorishib ketdi. – Baribiram izimdan kelmaydi deb o'tirgandir?

Bu gapga nima deyishimni bilmas edim. Yo'q, kutayotgandir, deymi? Yoki, haqiqatan ham kutmayotgan bo'lsa kerak, deymanmi?

– Sizga bir gap aytaymi, – dedi keyin. – Shu qishloq to‘la odam edi. Bari kelishgan, ko‘rkam kishilar edilar. Farishtaday kampirlar boriydi. Hammasi ketib qolishdi-ya?

Kuzda o‘t-o‘lan sarg‘ayib urug‘larini to‘kib yuboradi. Keyin asta-sekin so‘la boshlaydi. Xuddi birov bir chekkadan o‘rib-g‘aramlab kelayotganday...

Nazarimda, ketganlarning bari o‘sha yoqda, bir ko‘chani to‘ldirib yashashayotganday.

Shu ko‘chamiz o‘sha yoqda ham xuddi shunaqa bo‘ladiganday.

O‘h-ho‘, bu xalq qanaqa edi, siz bilmaysiz-da...

“Eh, Ubay aka! Men bilmasmidim?” degim keladi. Degim keladi-yu... endi Ubay aka ham yo‘q-da...

Yo‘l bo‘yidagi ariqda toza suvlar sharqirab oqardi. Tog‘u toshlardan oqib keladigan, sut kabi oq suv edi. Oltin behilar yetilar, uzumlar katta-katta bosh solib, g‘arq pishardi, uzum zanglarini kech kuzda yerga ko‘mardik. Oqshomlari oppoq yaxtak kiyib, belbog‘lariga pichoq taqib olgan kishilar ko‘chalarda gaplashib turishardi. Birov terak kesardi, tovushi shu yoqqacha kelardi, arra ostidan chiqqan qipiq isigacha tuyardingiz. Har hovlida, valishlar ostidagi o‘choqlarda ovqatlar pishardi. Odamlar pishirgan taomlaridan boshqalarga ilinishardi. Shomda uyida o‘tirgisi kelmasdan, bir-birinikiga chiqar, xotinlar bir yon, erkaklar bir yon, to oy havolab ketgunicha gaplashib o‘tirishardi.

Endi o‘sha odamlarni topolmayman. Ko‘rib gaplashgim keladi-yu, sira iloji yo‘q.

Barini birma-bir eslayman. Hovlilarning suvog‘i to‘kilgan devorlaridagi har guvalak bir qismatdan darak beradi. O‘tib ketgan ulug‘larimizning gap-so‘zlari, bobomning “Hoy, beta‘sir” deb chaqirishlari, otamning suyunib kirib kelishlari... Qay birini aytay, juda ko‘pchilik yo‘q-da.

Shu aylanishda ona qishlog‘imga o‘taman. U yerda tegrasidagi tol shoxlari suvgacha egilgan ulkan hovuz bo‘lardi. Bir chetida larzon-larzon behi pishardi. Bepoyon dalalar aro chopib o‘ynaganlarimiz esimda. Ko‘chalari bolaligimdan tanish, har do‘ngi, har chuquri yod. Ammo u yerdagi kishilar ham yo‘q...

Dashti Qipchoq

Nimasini aytay, Dashti Qipchoqdan kelgan u qizgina to ulg'aygunimga qadar xayolimni asir etdi.

Bahor kelganida gul-g'unchalar ochiladi. Ularning har biri yomg'irlaru shamollar aro – yuzi issiqda po'rsillagan, kulib qarashi bilan yodimda qolgan o'sha qizning siymosiga aylanadi.

Atlas ko'ylagi olov yolqinida tovlangani ham esimda. Qo'llari dag'al, mehnatda yorilgan, qop-qora sochi qalin edi. Vaqt o'tgani sayin malohati ortib boravergani-chi?

Har holda, biroz ulg'ayganimdan so'ng, uni yaxshi ko'rib qolgan bo'lsam kerak, degan to'xtamga keldim. O'z fikrimdan o'zimning orim keldi, yigit ismimga mos tutum emasdi bu. Qishloqda birovni sevib qolgan kishi mazaxga qolishi bor gap. Birov birovga ko'ngil qo'yishi juda o'ziga xos, mahram mavzu hisoblanadi.

Lekin mening aqlu xayolimni Dashti Qipchoq qizi ko'p yillar band etib yurdi. O'sha, qayrag'och shoxlari orasidan oqqan asal bilan uning siymosi birlashib ketdi. Qizargan yuzi, nimagadir moviy tusda porlagan oftob, issiqda rangi o'zgargan osmon, kishilarni eritib yuboradiganday tuyuladigan yoz hovurlari aro balqib turaverdi. Moviy deganimning sababi – quyoshga tikka qarab tursangiz, birozdan so'ng tegrasida qizil alanga lovullab turgan moviy olovga aylanib qoladi. Oniy u manzara xayolimga o'sha moviyliги bilan ko'chib o'rnashganiga hayronman.

Qishning qahratonlarida qalbimni isitganini aytmasam ham bo'lar. U mahal ishq-muhabbatni anglaydigan yoshda emas edim. Lekin uni o'ylasam, qalbim haroratga to'lardi. Sovuq uyga o'tin opkirib yoqqach, kechqurun hamma bir dasturxon atrofiga tizilib taomlangach, uyquga yotganimda ham o'shani o'ylayverardim.

Yuragimga kirib kelgan u noma'lum tuyg'ularni Tangrim ne uchun bino qildi? Nega uni insonlikning eng oliy, eng yuksak tuyg'usi o'laroq tanladi? Lekin, bir tomondan, muhabbatimni or deb hisoblar, gunohday tuyulgan o'sha tuyg'u ichimda borligidan tortinar, birov bilib qolishini o'ylasam, yuzim xijolatdan lov-lov yonar, xuddi menga benihoya ishongan otayu onam qoshida kechirib bo'lmaydigan nojo'ya bir ish qilib qo'yganday, ichimda ular bilmaydigan yomonlikni olib yurganday edim. Boshqa tomondan, yetti pusht olisdagi qarindosh bo'lishsa-da, ular bilan haddimni saqlab gaplashishim kerakligini bilardim. Qishloq shu edi-da, hatto tengdosh qizlar bilan ko'chada gaplashish nojoiz sanalar, chunki qiz-juvonlar oilalarning, erkaklarning or-nomusi hisoblanardi. Ayollarga ehtiyotsizlik tufayli

aytilgan biror gap yoki biror-bir o'smirning o'ylamasdan qilgan muhabbat izhori uchun ham janjal chiqar, o'zini o'sha qizaloq sha'niga aloqador deb bilgan kimki bor, biri pichoq, biri panshaxa ko'tarib "ora ochdi"ga kelaverishardi. Ulg'ayayotgan qizni aka-ukasi, tog'avachchasi, amakiyu amakivachchasigacha – bari birday ehtiyotlab-himoyalab yurishar, suvga yoki boshqa yumushga bir o'zini chiqarishmas, kech kirganida to'y-marosimga borar bo'lsa, albatta yoniga qo'riqchi qo'shib jo'natilardi.

Xudo haqqi aytamanki, yuragim faqat toza tuyg'ular bilan to'lgan edi. Xayolimda nigohining o'sha mahaldagiday chaqnashi, payvasta tutash qoshlari ostidagi cho'g' ko'zlarining men bilmagan ifodalari qolgan, xolos. Yana, u bilan benihoya ko'p gaplashgim, o'zim bilgan ajoyib joylarni ko'rsatgim, dala nihoyasida yetilgan nokning qir uchiga chiqib, oltin mevalaridan uzib tushgim kelgan. Katta ariqdan qanday sakrab o'ta olishimni ham ko'rsatganman. Menga minnatdor qarashining o'ziyoq o'smirlik mazmunimga berilgan baho desam bo'larmikin? Birgina o'sha qarash uchun olamdagi ko'p ishlarni bajarishga tayyorday sezardim o'zimni.

U qiz ham menga e'tibor qilganmikin? Nima uchun uni yetaklab kelishdi ekan? Qavming, jon-jigarlaring shular, bizlar shu eldan uzilib ketganmiz, bilginu unutmagin, rishtalarni mahkam tutgin, deyish uchunmikin? Kattalarning gapi shunday bo'lsa bordir, qizning o'zi-chi? Qarshisidagi novdaday ozg'in, o'zini ko'rsatgisi kelgan bo'z bola qalbida qiziqish uyg'otganmikin? Ya'ni, menga bir qadru qiymat berganmikin?

Yashirib nima qildim, goh-goh o'sha Dashti Qipchoq tomonlarga borgim ham kelardi. Nazarimda, har taraf lang'illagan sahro, paxsa uylar oldida u qiz shu tarafga bot-bot qarab, yumushlariga urinib yurganday tuyulardi-da. Uniyam, o'sha qishloqdoshlarimizni ham sahro tutqunligidan qutqarib, farovon yashil bog'larimizga olib qaytgim kelardi...

Bobom

Bobom – mosh-guruch soqolli, yuzi ajinlarga to'la, barvasta qariya edi.

U tug'ilgan mahallarda odamlar juda qashshoq yashashgan ekan. Eski zamonlarning gap-so'zlaridan gapirib o'tirardi.

O'zi novvoy edi. To'ylarga non yopardi. To'y noni chiroyli chiqsa, "Xudoyim, o'zingga shukr" der, azaga yopilgani qiyshiq chiqsa, "O'zing rahm qilgin" deb qo'yardi...

Nihoyatda qiyin hayot kechirganmiz, derdi. Kishilar turmush juda og'irlashib ketganida ham

qora kunlarga sabr qilib, rizqlarini yerdan chiqarib yuraverishgan. Bir kunmas-bir kun Xudoning rahmi kelib, umrimizni o'nglab qo'yar deb xayol qilishgan.

Eh-he, el qanaqa kunlarni ko'rmagan deysan? Bora-bora, hayot tirikchilik g'amidangina iborat bo'lib qolgan. Jon-jahdi bilan ro'zg'orim, bolam-chaqam deb tirishavergach, nimayam bo'lardi?

Bobom mana shulardan – eski, olis, men tushunmaydigan g'alati tarixlardan hikoya qilib berardi.

– Bu dunyo to'rt narsasiz hech nimaga aylanib qoladi, – der edi. – Suv, havo, tuproq, olov. Havo bo'lmasa, hech kim nafas ololmaydi. Suvsiz tiriklik qirilib ketadi, tuproqsiz ne'mat unmaydi, olovsiz biror narsa pishmaydi. Shuncha maxluqotni to'rt narsaga muhtoj qilib qo'rganini ko'rmaysanmi?

– Rahmatini to'rtta narsaga joylagan: shamol, yomg'ir, sut, asal. Shamol kelmasa, havo almasharmidi, dov-daraxt changlanarmidi, bulut kelarmidi? Bulut kelmasa, yomg'ir yog'armidi, meva-cheva yetilarmidi, o't unarmidi? Sut bo'lmasa, avlod yetilarmidi, tiriklik bo'larmidi? Asal bo'lmasa, shifo kelarmidi?

– Odam degan imoratni to'rtta ustunda ko'tarib qo'rgan: sog'liq, rizq, shukr, baraka. Sog' bo'lmasang, tomog'ingdan bitta uvoq o'tmaydi. Shukr qilmasang, umringga baraka kelmaydi. Ota, ona, juft, bola-chaqa degan to'rt unsur esa to'rt tomoningdan o'rab turadi. Shularni bittasi kam bo'lsa, ohu zoring osmonlarga yetib zorlanasan. E, tavba...

Umrining oxirlariga borib, jannat haqida gapiradigan bo'ldi.

– Ro'za tutsang, kechqurun halvoqand beraman, – der edi.

– Tutsam nima bo'ladi?

– Jannatga kirasan.

– U nima?

– Oxiri yo'q bog'-da. Qara, hamma ro'za tutyapti. Bir kun kelib qarasang, mana shu kishilarning bari xuddi shu qishloqdagiday bir joyga to'planishadi.

– Tutmasam-chi?

– Gunoh bo'ladi.

– Laylatulqadr nima?

– U senga juda katta qadr-qiyamat beradi. Shundan keyin neki olsang, oltin bo'laveradi.

– Xizr kim?

– Katta bo'lganingda bilib olasan, – keyin ko'zlari namlanib, soqoli titrab, o'ksinib shunday dedi: – E voh, o'zimning xizrlarim bir mahallar shundoqqina kiprigim ustida edi-ya. Qadriga yetmadim, har narsaga chalg'idim, endi qadrini bilganimda ikkalasiyam ketib qolishdi. Ko'rgim keladi-yu, ko'rolmayman, shuncha yoshga kirib munkillab qolgan bo'lsam ham sog'inaman...

Bobom sakson to'rt yoshida jonini Haqqa topshirdi. U mahal men o'n to'rt yashar bola edim. Dunyo o'zining zuhurotlari, voqea-hodisalari bilan birga ongimga to'fonday quyulardi. Qayerlardadir men ko'rmagan-bilmagan voqealar ro'y berayotganini sezib turardim. Kishilar eski televizorlardan ko'rgan, radiodan eshitgan gap-so'zlarni gapirib o'tirishardi. Ertagu afsonalar, urf-odatlar, Xizr alayhissalom rivoyatlari, laylatulqadr kechalari kabi o'nlab hodisalarning bari zehnimga o'chmas bo'lib o'rnashgan edi.

Ya'ni, tegramdagi kishilar umum bir mazmunni shuurimga quyib bo'lishgan, endi shu mazmun ila umr kechirishga mahkum edim. Bu baxtiyorlikmi, saodatmi yoki xatomi, aqlim yetmasdi. Lekin o'zgartirishni istasam ham, o'zgartirolmasligimni bilardim.

Hayot

(Genetikning ikkinchi hikoyasi)

Bir mening qishlog'imda emas, minglab qishloqlardagi hayot shunday bo'lganiga endi aqlim yetadi.

Hovlilar, tutumlar, marosimlar, odamlarning yashash tarzi bir-biriga juda o'xshash. Masalan, bir hovliga kiring. Ayvon ustunida mixga osig'liq to'rtburchak radio bor. Simi qorayib, ba'zi

joylari ochilib qolgan. Undan qo'shiq taralmoqda:

Sim degan vayronaga bormay desam borgim kelur,

Bu sharob achchiq sharob, ichmay desam ichgim kelur...

Qo'shiq egasi nima uchun u vayronaga borgisi kelishini, nimaga achchiq sharob ichishini tushunib bo'lmaydi. Bilag'onroq birortasidan so'rasangiz, bosh iring'ab "Ha, Sim – o'z shahrimiz, qadim zamonlarda ajdodlarimiz xarobalarda yashashgan-da" deb qo'yadi. Ishonmaslikning iloji yo'q, chunki qo'shiq egasining o'zi aytib turibdi vayrona ekanini...

Darvozaxonaga yaqin joyga, kiraverishga mehmonxona qurilgan. Mehmonxonaga bolalar kirmaydi. Yangi to'shaklar o'sha yerga solinadi. Xonadon egasi uni qurbi yetganicha jihozlaydi. O'zi esa etakroqdagi boshqa uyda kun kechiradi. U imorat ikki xonali, ulardan biri – oshxona. Oshxona ichida o'chog'i bo'ladi. Qishda butun oila mana shu yerda qishlaydi. Chunki yagona issiq joy shu. O'choqda tinmay o't yonadi, gohida sandal quriladi.

Ayvondagi eski radio ovozi shu yerlargacha ham kelib turadi.

– Diqqat qiling. So'nggi axborot eshittiramiz. Bugun soat oltidan o'n uch daqiqa o'tganida, xalqaro ekipajni o'z bag'riga olgan kosmik kema fazoga parvoz qildi. Kosmonavtlar o'zlarini yaxshi his etmoqdalar. Xalqaro kosmik ekipaj parvoz mobaynida turli radiometrik o'lchovlarni hamda vaznsizlik muhitida inson genetikasi mavzusidagi ilmiy izlanishlarni amalga oshiradi.

Yerda esa bir chumoli don ko'tarib o'rmalab bormoqda. U – kurmak doni. Urug'ini yerga to'kkani bu yilgi yumushini bajarib bo'lganini bildiradi. Maysalar urug' solsa bas, darrov kuzga tayyorlanib yaproq to'ka boshlashadi. Shu sababli rayhonlar "vazifam bitdi" demasligi uchun urug'larini chimdib olib tashlasangiz, yanada gurkirab o'sadi. Chumoli kurmak donini yer tubidagi uyasiga tashib ketayotgani kuz erta kelishining alomati.

Agar qishloqqa qush uchadigan balandlikdan qarasangiz, turarjoylar ozligini, dalalar esa kengligini ko'rasiz. Dalalarda boshlarini ro'mol bilan o'rab, etik kiyib olgan kishilar ko'rinadi. Har yer-har yerda shiyponlar bor, ularning tegrasi tollar bilan o'ralgan. Tush mahali dalachilar shu joyga yig'ilib kelishadi. Issiq kuchayadi.

* * *

Ha, issiq kuchayadi, tuproqdan qaynoq hovur ko'tarila boshlaydi. Mehnatchilar ochqashgan. Dalaning yovg'on sho'rvasi qorayib ketgan katta qozonlarda pishadi. Ichida sabzavot mo'l, ammo go'shti yo'q, shildir suvdan iborat. Oshpazni bakovul deydilar, u ko'pincha keksaroq kishilardan saylanadi. Tushlikkacha pishirsa bo'ldi-da. Odamlar yeydigan nonlarini o'zlari, uylaridan opkelishadi. Ular o'rtaga qo'yilganida, har xonadon noni turlicha ekanini ko'rasiz: birining chekich izi boshqa, birining rangiyu shakli... Yovg'on sho'rva ichilgach, biroz u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishadi.

O'sha issiqda ham qiz-kelinchaklar shiypon ortiga o'tib, o't o'rishadi. Boyaqish, kimningdir xonadoniga kelin bo'lib tushgan, endi xizmatini qilishi shart.

– Hali novdadaygina bolakaysan-ku, qo'y axir, biroz damingni olaqol?!

– Yo'q, – deydi oftobda qizargan yuzi yanada qizarib. – Bo'sh qo'l bilan kirib borsam, ayb bo'lmasin...

Odamlar ekin-tikinning hamma xususiyatlarini bilishadi. Masalan, chigit bahorda qadaladi, qo'shquloq bo'lib chiqqanida yomg'ir yog'sa, tuprog'i qatqaloq bo'lib qoladi, tesha yoki ketmoncha bilan yumshatiladi. Keyin yagana qilinadi, ya'ni besh-oltita unib chiqqan niholdan bitta yo ikkitasi qoldirilib, qolgani yulib tashlanadi. O'sha mahal oftobda qizigan kesak isini sezasiz, u is dimoqqa qattiq o'rnashadi.

Ba'zi dalalarga beda ekiladi. Beda isi yoqimli, ko'm-ko'k gullaganida orasida asalaruyu kapalaklar uchib yurganini ko'rasiz. Gohida yer arisi ham bo'ladi, uning chaqishi xavfli emas. Qovog'ari qattiq chaqadi, u uch turli. Beozor uchib yuradigan sarig'i, zug'umli qizili hamda qorasi bor. Qora qovog'ari chaqsa, odamni o'ldirarmish. Kamdan-kam uchraydigan ko'k tuslisi ham bor, uni ko'kyo'talga davo deyishadi.

Arilar deganda yana bir manzara ko'z o'ngimda: kuz paytida, katta boshlari osilib turgan uzumlar ayni pishganida, sariq arilar ularga xuddi durday g'uj-g'uj yopishib, sahargi ayozda karaxt bo'lib yotardi. Hamma uxlab yotganida erta turib, o'sha arilarni terib onamga olib kelib berar ekanman. Qancha koyish eshitsam ham, kaftlarim ari chaqishidan necha bor shishib ketsa ham shu ishni qo'ymaganim ajab. U g'alati jonzotlarni bir ushlab ko'rishga intilmagan bolakay yo'q bo'lsa kerak. Ayniqsa, o'spirinlik paytida qo'shni bolalar bilan paxsa

devorlar tirqishidagi inlariga cho'p suqib qochgan, noxos chaqib olganida yuz-ko'zi gupchakday shishib ketib, bir-birini anchagacha mazax qilib yurgan tengdoshlarimni eslasam, bolalikning nodon sho'xliklaridan hayratga tushaman.

Unday sho'xliklarni boshidan o'tkazmagan qishloq bolasi bo'lmasa kerak deb o'ylayman. Ajabo, bu ham tabiatni o'rganish, sezish, u bilan muloqotga kirishish uchun dastlabki urinishlarning eng oddiy ko'rinishimikin?

Dala shiyponi – ohak bilan bo'yalgan katta bino, bir yonida hovuzi, ortida sabzavot tomorqasi bo'ladi. Hovuz chetida tollar tig'iz o'sgan, shoxlarida rizq istab o'rmalayotgan hasharotlar goho suvga qulab tushadi. Hovuz yonida so'ri bor, katta kishilar shu so'rida tushlik qilishadi. Boshqa tollar ostida belanchaklar osilgan. Belanchak – ikkita ingichka tayoqni yonma-yon qo'yib, qanor qopning matosi tortilib, tepayu pastiga ko'ndalang kaltaklar qo'yib yasaladi. U kaltaklar tutdan yo behidan kesib olinadi, agar tol-terak shoxidan qilinsa, sinib qolishi mumkin. Go'daklar mana shu belanchaklarda uxlashadi, birortasi yig'lasa, bog'cha xotin kelib tebratadi.

O'ynoqi shabadani shu kengliklarda ham ko'rasiz. Qumloqda bo'y cho'zgan salom-alik o'tining urug'larini to'kadi, qaqray boshlagan yer yoriqlaridan mo'ralagan qoraqo'ng'izni qo'rqitadi, ko'chaning upaday tuprog'idan pirilloq yasaydi, qayrag'och barglarini o'ynaydi, qizg'in dalalardagi ekinlarning yaproqlarini yovvosh chayqatib o'tib, horg'in dalachilar poyiga kelganida mayin-mayin esadi. "Hah, boringga shukr, juda vaqtida esding-da" deb qo'yishadi kishilar unga qarata, jonlari orom olib.

Gohida belanchakka tol shoxlaridagi qurt-qumursqalar tushib qoladi. Birortasi chaqib olsa, go'dak chirillab yig'laydi. Mayna degan qush bor, hushyor turilmasa, bolaning ko'zi yiltillagani uchun kelib cho'qib ketishi mumkin. Shuningdek, beshiktervatar degan hasharot ham bor, u odamning ko'ziga tashlanadi, deydilar. Old oyoqchalaridagi arrasimon tishchalarini ko'rsatib, tebrana-tebrana bir sakraganida pardasini qirqib yuborsa, qorachig'i oqib tusharmish.

Bog'cha xotin shularning bariga hushyor turishi kerak. Chunki chopiqchi juvonlar bolalariga juda ilhaq.

Chopiq shuki, g'o'za tubidagi suv yetib boradigan joyning tuprog'i ketmon bilan yumshatiladi. Shunda u bemalol suv icha oladi.

– G'o'za – eng dangasa ekin, u yoq-bu yog'ini chopib, qulog'idan tortib, ildiziga havo

bermasang, sira o'sgisi kelmaydi, – deyishadi kattalar.

Chopiqchi ayollar egat oralarida o'sgan o'tlarni yulib-to'plashadi. Shabada g'o'za bargi, yulingan kurmak va pechakning biroz achqimtir isini atrofga taratadi. O'tlar yulinganida yoki o'rilganida nima uchundir gurkirab hid taratadi. Shom qo'na boshlaganida hamma uyiga yo'l oladi. Qiz-juvonlar o'rgan o'tlarini tugib, boshlariga qo'yib olishgan. Teraklar ostidan, tuproq yo'ldan qatorlashib ketaverishadi. Ariqda suv jildirab, yalpiz bo'ylarini sochib yuboradi. Shom qo'na boshlagani mahal turli islar har yoqni tutadi, negadir tongda va peshinda unaqa bo'lmaydi. Osh isi keladi – zirvagi qovurilmoqda. Qishloq tomonga qarasangiz, siyrak tutun suzib yurganini ko'rasiz, u – dog'langan yog'ning tutuni. Tarqalib-siyraklashib ketmaydi, yupqa qatlam bo'lib suzaveradi.

Bolalar ham o'yindan charchab, uylariga kira boshlashadi. Dalachilar hozirgina ishdan qaytishdi. Nariroqqa "T-28" degan traktor kelib to'xtaydi, aravasi odamga liq to'la. G'aram-g'aram o'tlar yerga tashlanadi. Kattaroq o'smirlar dalachilarning kelishini poylab turishadi, o'tlarni o'shalar ko'tarib borishadi. Qiz-juvonlar bir-birlariga yordamlashib yuborishadi: g'aramlagan o'tlarini boshlariga qo'yib ketaverishadi. Shundan keyin traktor tarillab jo'naydi: traktorchining ham bola-chaqasi bor, ko'z tutib turishibdi.

Ha-a, xudoga shukr, kun o'tdi. Charchadik... Etiklar yechiladi. Qo'l-oyoq, bel zirqirab og'riydi. Kunduz jaziramasini o'ziga singdirib olgan, hali issig'i ketmagan o'tlarni sigir-qo'ylar talashib-tortishib yeydi.

– Ovqatga kelinglaru-uv!!!

Bu – o'n bitta bolasi bor To'xta xolaning ovozi. Shunga o'xshash chorlovlar har hovlida eshitaladi.

Oilalarda bola-chaqa ko'p. Sababi: vaqti kelib ulg'ayishganida bir-birini suyasin, yordam bersin. To'xta xolaning bolalari o'n bitta bo'lsa, yana bir mushtipar ayol – Qumri xolaning farzandlari o'n beshta.

– Hoy bolalar, kelinglaru-uv! Ovqat pishdi-i!

Shu tariqa shom kiradi.

Shom qo'nganida tevarak sokinlashadi. Oy havolaganida esa biror jon asarini sezmaysiz – hamma uyquga ketadi. Axir, kun mashaqqatli, mehnat zahmatli bo'ldi, charchoq g'olib

kelmasinmi? Ertaga saharlab turish kerak. Chunki qancha ro'zg'or ishi turibdi, buning ustiga, chopiq hali bitmadi. Ko'proq o't g'amlash kerak. O'tin-cho'p yig'ish kerak, mehnat qilmasa bo'lmaydi. Sabzavotlar yetildi, yig'ib olish kerak, makkalarni o'rib-saranjomlab, donini uqalab qoplarga solish kerak. Qishga tayyorgarlik-da. Qish qattiq kelishi mumkin, g'amlamasa yanagi bahorga yetib olish mushkul.

* * *

Bolalar o'n uch-o'n to'rt yoshidan dalaga chiqishadi. Yoshroqlarga oson ishlarni buyurishadi, masalan, ariq tozalash. Ariq ichidagi o'tlar tig'iz o'sib, suv oqimini to'sib qo'yadi. Ketmon bilan ariqning ham ostini, ham ikki yonini chopib tozalaysiz.

Dalaga sal-pal ko'zi o'rgangan o'smir dori solishga tayinlanadi. "T-28" degan traktorning orqasidagi, tubida teshiklari bor katta yog'och oxur doriga to'ldiriladi. Traktor egat oralab yurganida dori temirtishlar ag'darib ketayotgan tuproq orasiga bir tekisda shuvillab to'kilaveradi. Bu zaxira dalaning u boshiga ikki marta borib kelishga yetadi. Motor shovqinida ovoz eshitilmaydi, buning ustiga, traktorchi Dalavoy akaning qulog'i og'ir. Ikkinchi borib-kelishda traktorchi paykal chetiga to'xtaydi. O'smir pastga tushib, qog'oz qoplardagi dorilarni opkelib o'sha "oxur"ga ag'daradi, to'lganidan keyin yana egatlar orasiga kirib ketaverishadi.

Dorilar bir necha tur. Selitra oppoq, mayda, yum-yumaloq bo'ladi. Suvga solsangiz, muzday qilib qo'yadi. Fosfor, karbamid deganlari ham bor. Qizil tusli, ko'zdan yosh oqizadigan yana birini "kaliy" deyдилar. Mana shular dalaga solinishi kerak.

Qaldirg'ochlar aylanib qiyalamasiga uchadi. "Ularga qarasang, boshing aylanib yiqilib tushasan", deyishadi. Bultur bir bola qaldirg'ochlarga mahliyo bo'lib, temirtishlar orasiga tushib ketganmish. Uning kimligini aytishmaydi. Bir haftacha shu ishda ishlagan odamning badaniga qizil toshmalar toshib ketadi.

Hisobchi aka shundan so'ng dori soluvchi o'smirni ishdan ozod qilib, o'rniga boshqa bolani tayinlaydi. Yangisi ungacha ariq tozalashda edi, dori ishi yanada oson, shu sababli xursand bo'lib oxurga sakrab chiqadi-da, shodon iljayadi.

Dori solinganidan so'ng g'o'zalar ham, o'tlar ham gurkirab o'sib ketadi. Hamma nimagadir ko'sak sanashga ishqivoz. Agar bir tupda sakkiztadan oshiq bo'lsa, hosil yaxshi. Ba'zilarida

o'ntadan ham ko'p bo'ladi. Paykal chetlaridagi g'o'zalar qirqilib, traktor burilib olishi uchun yo'l ochilgan, u yerning girdo-girdiga makkajo'xori, mosh, loviya ekilgan. Makkajo'xori – sigirga yemish, vaqti kelganida egasi uni o'rib-saranjomlab, uyiga olib ketadi. Makkalar hozir odam bo'yi bo'libdi, pishishiga ancha bor. Mosh-loviya yetilmabdi. Ertapishar qovunlar ham bor, o'smirlar ba'zilarini xom-xatalaligicha yorib yeb qo'yishadi. Hali pishmagan-u, ammo ta'm kirib ulguribdi. Etini yeb, urug'larini paykal oralariga tashlab ketamiz.

G'o'zaga tushgan ko'sak qurti juda ochofat bo'ladi. Bir kuni egat oralariga tashlab ketilgan qovun urug'larini ko'sak qurtlari yeb o'lib qolganini ko'rdik. Shirasini sezib o'rmalab kelishgan-u, nimasidir yoqmagan bo'lsa kerak... Qovun tarkibida ko'sak qurti uchun zahar borligi tasavvurga sig'maydi, shunday shirin narsa nahotki zahar bo'lsa? Uch-to'rt marta shu ishni takrorlaymiz, har safarida o'sha yashil jonzotlar halok bo'laveradi. Odamzot uchun lazzatli narsalar boshqalarga yemish qilib berilmaganini idrok qilamiz. Masalan, mol-qo'y shakar yemaydi. Asalday shirin narsa ham unga ozuqa emas... Bolalar to'planib, qay maxluq nimani yemasligini tajriba qilib ko'ramiz. Eng yaramasi kuchuk bo'lib chiqadi: oqqand yoki shirinkulcha yegan kuchuklar bor. Boshqalari esa bizga mazali tuyulgan narsalarga qayrilib ham qarashmaydi... Hovlimizdagi olma pishganida ba'zi mevalari ichidan kattakon qurt o'rmalab chiqadi. Bolalar bilan tomoq og'riganda ichiladigan suyuq dorilarni u yer-bu yerdan topib, o'sha qurtlarga sepib ko'ramiz, jon holatda biltanglab qochsa, doridan qo'rqar ekan-da deb xulosa ham qilamiz.

Idrok mana shunday barq urib, tevarakdagi hodisalarni o'ziga singdiraveradi.

Otalar o'g'illariga "Kelishingda molga o't o'rib kel" deb tayinlashadi. Aytganini ba'zan qilishadi, ba'zan qilishmaydi. Juda bo'lmasa, zovur ichidagi sabzio'tlarni o'rib kelaverishadi. Sabzio'tning turgan-bitgani suvdan iborat, oftobga qo'ysangiz bir tutam bo'p qoladi. Azbaroyi ota koyimasin deb, amal-taqal o'rib kelishadi-da. U shumliklarni ota bilmas ekanmi? Ota-ya? Gohida koyiydi, gohida esa indamaydi.

Ilmlar maskani

Qishloq bolalari tong saharlab maktabga yo'l olishadi.

Sinf partalari qachonlardir jigarrang, keyinchalik yashil bo'yoq bilan bo'yalgan, ko'chgan joylaridan eski bo'yog'i ko'rinib qolgan, ustida siyoh dog'lari, pichoqcha bilan o'yilgan belgilar ko'zga tashlanadi. Kimdir dars mahali yoqtirgan qizining ismini o'ygan, keyin o'chirib tashlagan. Xonalarning shifti baland, faner qoqilgan, har sinfdan to shiftgacha bo'y cho'zgan qora baqaloq pechkalar bor. Sinflarning eshiklari ham baland.

Katta sinflar tushgacha, kichiklar tushdan keyin o'qishadi.

Daftarlarning ahvoliga maymunlar yig'laydi. Fizika daftari ichida qushlar, daraxtlar, qo'lida kamon yoki bolta tutib hayvonlarni ovlayotgan azamat ovchilarni ko'rasiz. Ular otayotgan o'qlargacha chizilgan bo'ladi. Hammaning o'z qahramoni bor. Masalan, Rasul degan bir bolaning daftari yaxshi otliq yomon otliqni quvib ketmoqda. Tabiiyki, yaxshi otliq – Rasulning o'zi.

Yer yuzining igna uchicha kelmaydigan nuqtasida hayot mana shunday davom etadi. Har sahar ancha-muncha bola papkasini yelkasiga osib maktabga, odamlar esa dalalarga yo'l olishadi. U bolalar nima uchun o'qiyotganini o'zlari ham bilishmaydi. "O'qisang odam bo'lasan" deyishadi kattalar. Odam bo'lish qanaqa, o'zi? Hech kim bu bolalarning "odam bo'lishi"ga ishonmaydi. Ha, maktabni bitirishsa, armiyaga ketishadi, armiyadan kelib uylanishadi. Keyin amakilaru tog'alar kabi mol-hol boqib yo dalada ishlab yuraverishadi. Hayot shunday davom etadi...

Maktab bolalar ongiga tarix saboqlarini quyadi:

– Ota-bobolaringiz g'irt johil, savodsiz, zulm ostida ezilib yurishgan. Keyin Davlat kelgan. Xalqni o'qitib, bilim bergan, maktablar ochgan. Elektr toki opkelib, yo'llar qurgan, moshinalar, traktorlar sovg'a qilgan... Davlat bo'lmasa, xalq omochda yer haydab, eshak minib yurgan bo'lardi.

– Davlat nima?

– U nihoyatda qudratli, aytganini quloq qoqmay ado etish kerak. Yo'qsa, kulingni yetti pushtingga qo'shib ko'kka sovurib yuboradi. Laylatulqadr kechasidagi osmon esingdan chiqdimi?

Davlat haqidagi bor-yo'q tushuncha shundan iborat.

Ha, tarixni qaydan ham bilardik? Fizika aytadiki: elektr toki ixtiro qilinganiga yuz ellik yil bo'ldi. Kosmik kemalar fazoga parvoz qiladi, tok kepqolganida fazogirlar televizordan yer yuzidagi insonlarga qarab, kulib qo'l silkitishadi, olis o'rmonlardayu muzliklar bag'rida yana nimalardir sodir bo'ladi. Birgina bizning qishloqda hayot to'xtab qolganday... Aytilyotgan gaplar tasavvurdan shunchalar uzoqki, xuddi ertakka o'xshaydi.

– Tur, molga o't sol, ro'zg'orga qarash! O'qib olim bo'larmiding?

Aslida odamlar farzandlarining bilim olishini, “katta” o‘qishlarda o‘qishini orzu qilishadi, ammo shu sharoitda olgan bilimi “katta o‘qish” ostonasigachayam yetmay, “Bo‘lmadi, ota” deb qaytib kelishidan cho‘chishadi. Shu sababli “Sendan olim chiqarmidi” deb qo‘yaqolishadi.

O‘sha-o‘sha bahaybat texnikalar, ularning loyda qoldirgan izlari. Shamolda taraqlayotgan yo‘l belgilari... Uzundan-uzoq ekin dalalari, egatlar orasida quruq yerga o‘tirib yeyilgan behi ta‘mi, maktabdagi darslar... Uzoq tarix olisdan bir jilvalanadi-yu, g‘oyib bo‘ladi.

Nima bo‘lgan edi, o‘zi, tarixda?

Tarix jim edi. Gapirmasdi, indamay turaverardi.

Kattalardan so‘rasangiz, ular ham bilishmaydi. Go‘yo odamlar juda ko‘p asrlardan beri shunday yashab kelishayotganday. Savodsiz, johil ota-bobolar, zulm ostida ezilgan tarqoq xalq... Begona qahramonlar, suv osti kemalari, baland uchadigan stratosfera uchoqlari... Yelkasiga behi novdasidan kamon yasab osib yurgan bolalar... U yoshdan o‘tib, ancha ulg‘ayganlariga esa otasi “uylantirib qo‘yaman” deb po‘pisa qiladigan bo‘lgan... Amal-taqal qilib maktabni bitirib olishsa, nima ishning boshini tutishi noma‘lum... O‘sha hayot, o‘sha zahmatlar...

U taassurotlarni, manzaralarni hech bir tarix tushuntirib berolmaydi. Tarix quruq faktlardan iborat. Lekin kishilar qalbidagi manzaralar butunlay boshqacha, jonli, ma‘noli, insonlar taqdiridan hikoya qilaveradi.

Rim imperiyasi va “Homo Sapiens”

Maktab bolalari o‘zlarining tarixlarini yaratib olishgan.

Shulardan biri – Rim imperiyasi. Temir sovut, uchli dubulg‘a kiygan, uzun nayzali qirraburun kishilar va ikki g‘ildirakli jang aravalari darhol ko‘z o‘ngingizga keladi. Shuningdek, oq matoga chala-yarim o‘rangan hamda boshiga dafna yaprog‘idan gulchambar taqib olgan imperatorlar ham namoyon bo‘ladi. Ulardan biri – Oktavian Avgust degani narigi ko‘chadagi patak soqolli Sami buvaga o‘xshab ketadi. Faqat, Oktavian jingalak sochli, oq yuzli bo‘lsa, Sami buva – sap-sariq kishi. Oktavian ummonni suzib o‘tib, qadimiy bir shaharni ishg‘ol qiladi va unga Karfagen deb nom beradi. U shahar hozir ham bor, faqat nomi boshqa –

Kartaxena[iii].

Bu fan meshlarga havo to'ldirib, daryolardan suzib o'tgan yovqur skiflar haqida ham hikoya qilib beradi. Undan ham avval-chi? Bir mahallar yer yuzida maymunlar yashagan, deydi tarix. Davr o'ta-o'ta, ulardan bir qismiga aql kira boshlagan. Toshlardan qurol, daraxt shoxidan yoy yasashni kashf qilib olishgan. Bittasi zerikib o'tirib yovvoyi bug'doy donini o'tga tashlasa, qovurilib shirin bo'lib qolibdi. Shu tariqa bug'doydan non yopishni o'rganishgan.

Odam Ato-chi? Momo Havo-chi?

Ular haqida fanda hech gap yo'q. Ungacha yer yuzida faqat hayvonlar yashagan dedik-ku? Fanlarning uqtirishicha, qanaqadir tasodif tufayli turli-tuman u maxluqlarning bir toifasida to'satdan aql paydo bo'lib qolgan. Bu hodisa qanday yuz berganini biron bilmaydi. Maymunsimon mavjudotlarning o'zlari ham odamga aylanayotganligidan bexabar yuraverishgan. Bir mahal qarashsa, o'zgarib qolishganmish... O'zlarida fikr yuritish qobiliyati paydo bo'lganini anglab yetishguncha ham oradan minglab yillar o'tibdi... Ana o'sha toifa keyinchalik o'ziga Odam deb nom bergan.

Qachondan boshlab insonga ism qo'yila boshlangan?

Odam nasli ko'payavergach, ismga ehtiyoj paydo bo'lgan-da. Uzun bo'yilisini uzun, kaltasini kalta deb chaqirishgan. Odamzot yanada ko'paygan, shundan so'ng farqlab olish uchun yangi ismlar o'ylab topishga to'g'ri kelgan. Toshday qattiq bo'lsin deya Toshboy, shamolday uchqur bo'lsin deya Shamolboy... Shu tariqa ismlar urf bo'lgan...

Lekin tarix kitobidagi eng qadimgi odamlarning ismi yo'q. Bizga surat qatlaridan tek qarab turishadi. Bir jihatlarini o'zimizga o'xshab ketadi, biroq oradagi masofaning juda olisligi ham seziladi. Shulardan biri – Teshiktoshdan topilgan neandertal bola. U bizdan ko'ra yoshroq, sakkiz-to'qqiz yashar chamasi.

Teshiktoshdan topilgan bola

Hayvon terisidan lungi o'rab, toshbolta ko'targan ajdodlar ovga jo'nashadi. Keksaroqlar g'orlarda toshni toshga urib, uchqun chiqarib olov yoqishmoqda...

Teshiktoshdan topilgan bolaga juda rahmim keladi.

Nima falokat, qachon ro'y bergan? Sakkiz yashar bola nega halok bo'lgan? U-ku topilaqolibdi, boshqalar qani?

Tasavvur uning o'zimiz kabi qo'y boqib, kechki shudring tushgan o'tloqlardan g'orga qaytganini, olovda et pishirishganini, kechasi yulduzlar chaq nab, oy samoga ko'tarilganini, yorug'ida tog'u toshlar qorayib ko'ringanini jonlantiradi.

Ishqilib, nimadir ro'y bergan-u, sakkiz yashar bola muz va tosh orasida qolib ketgan. Baquvvat jussasi, keng peshonasi, o'siq sochlariga qarab, sakkiz yashar ekaniga ishonmaysiz. Bizning bolalarning ko'pi tolxivichday ozg'in, soddayu ishonuvchan, mehnatga endigina kirishgan. U bolakayda esa mehnat zahmati sezilmaydi. Kim bilsin, tarix shunaqa tasavvur uyg'otadi. Balki, o'tloqlarda shamol bilan birga yelib, suvlarni sochib cho'milib o'ynagandir ham?

Tosh qurollar, boltalar, bug'doy yanchilgan xarsanglar, toshtovoqlar... Boyagina ovga ketgan kishilar qaytib kelishmoqda. Ularni tarix bizga "Neandertal odamlar" deb tanishtiradi.

Teshiktoshdagi o'smir o'zimizning bola bo'lsa, neandertal kim?

– Neandertal odam yoki "Homo neanderthalensis" – insonning yo'qolib yoki boshqalar bilan qorishib ketgan vakili bo'lib, ilk ajdodlari bundan ikki yuz ming yil avval Yevropada, Markaziy Osiyo hamda Oltoy mintaqasida yashashgan, – deb uqtiradi tarix, cho'tir muallimimiz Sulton akaning ovozi bilan.

Teshiktoshdan topilgan bolaning shahdu shiddati boshqacha:

– Qor rosa qattiq yoqqanida, tog' ustidan tushib kelgan oq yo'lbars go'daklardan birini olib ketdi, – deydi ko'zlari chaq nab. – Urug'ning bor erkagi uning izidan tushdi. Men ham otamga ergashib bordim. Qor bo'ralab urardi. Kuchuklarimiz oq yo'lbars izini topishdi, u go'dakni allaqachon yeb bo'lgan ekan. Kishilar alamdanda baqirishganida qor ko'chdi. Ancha-muncha odam ko'chki tagida qoldi...

– Odamlar ko'p edi, – deydi keyin. – Amakilarim boshqa joylarda yashaymiz deb ko'chib ketishdi, bizlar esa qolaverdik. Yayloqlarda tuman odam yashardi. Boshqalarni bilmayman, – deb bosh chayqaydi bolakay. – O'shandan beri shu yerdaman.

– Ke, o’rtoq bo’lamiz. Oting nima?

– Er Bug’u.

Men shu tariqa o’sha bolakay bilan do’stlashib olganman. Tengdoshlik hissiyoti fandan ustun kelgan bo’lsa ajabmas. Er Bug’u degan u bola to yettinchi-sakkizinchi sinfgacha biz bilan yonma-yon o’qiydi. Bizlar ulg’ayamiz, lekin u sira katta bo’lolmaydi, sevgi-muhabbat pallasi kelganida mayda bolalarga qo’shilib qolib ketadi.

* * *

Ko’chalar kuzda loy bo’lib yotadi. Goho g’o’zapoya ortib katta traktorlar o’tadi. G’ildiragining tishlari katta-katta, loyda palaxsa izlari qoladi, u izlarga yomg’ir suvi to’planib, vaqt o’tishi bilan qirmizi tusga kiradi.

Loygarchilik bois hamma etik kiyib yuradi. Charm etik qimmat, shu sababli biz kabilarga arzonbaho “tosh etik” deyilganini olib berishgan. Tosh etikning rangi kulrang, usti g’adir-budir, terisi qattiq, bolalarning oyoqlari tuproqko’chalarda yalangoyoq yuraverib qotib ketgani uchun “tosh”ligi ham sezilavermaydi.

Kuzda tok ko’proq keladi, shunda odamlarning uylaridagi televizorlar ishlab ketadi. Lekin baribiram yaxshi ko’rsatmaydi. Sababi antennada. Bu yerlarda antennalarni juda baland ko’tarish kerak. Odamlar mistovoqni taxtaga mahkamlab, o’zlari antenna yasashadi. Kattaroq yigitlar “Shisha quvurcha ichiga simob qo’yib, ikki tomonidan sim chiqarib ulasang, butun dunyoni ko’rsatadi” deyishsa-da, bolalar simobni qaydan olishni bilishmaydi. Ba’zi ma’danlarni topsa bo’ladi, masalan, qo’rg’oshinni eski akkumulyatorlardan olasiz. Uni temir kosaga solib o’tga qo’ysangiz, saryog’day eriydi. Yerga shakl chizib, erigan ma’danni o’shanga quysangiz, istagan shaklingizga kiradi. Lekin qo’rg’oshinni antennaga ishlatib bo’lmaydi.

Antennalar baland xodalarga mahkamlanib, tomga chiqariladi. Uch-to’rt tomonidan sim tortib mahkamlanadi, yo’qsa shamolda ag’anab tushishi hech gapmas. Endi uni sozlash kerak. Bir kishi tomda, antenna tagida, boshqasi yerda, deraza oldida, uchinchisi ichkarida, televizor qoshida.

– Ko’rsatdimi?

– Yo‘q, o‘ngga bura!

– Endi-chi?

– Yo‘q, chapga bura!

Bir amallab ko‘rsatadigan qilingach, maza qilib kino tomosha qilsa bo‘ladi. Shunaqa mahallar uylarga kirsangiz, ancha-muncha bolakay oldiga qotgan nonni qo‘yvolib, eski sholcha ustida kit ovi yoki taygalar haqidagi kinolarni ko‘rib o‘tirganini ko‘rasiz.

– Nodir o‘lgur, makkadan o‘rib molga sol!

– Sobir, o‘t yulib kel!

– Omon! Suv bermabsan-ku, bo‘kirib yotibdi.

Qayda! Mol yana birpas suv ichmay tursa turaqolsin, kinoning zo‘r joyi keldi hozir!

Eng qiziq yerida chiroq lip etib o‘chadi.

– E-e, zo‘r joyi keluvdi-ya...

– Bo‘ldi, yotinglar! Ertaga sahar turasizlar!

Shu bilan hamma uyquga yotadi...

Ba‘zan esa kichkinalarga ertaklar aytiladi – hamma mushtdayligidan yod biladigan, devlaru ajdarlar haqidagi ertaklar.

– Bir bor ekan, bir yo‘q ekan... Odamlar tog‘u toshlar orasidagi yaylovlarda yashashar ekan. Bir kuni ularga kattakon dev hujum qilibdi. U kishilarni qamab qo‘yib, ishlatar ekan. Ochqasa, bitta-yarimtasini yeb qo‘yar ekan...

Minglab yillar avval Er Kenja, ya‘ni Kenja botir devni o‘ldirgani yo‘l oladi. Oy yanada havolab ketadi. Bulutlarning ost tarafi qorayib ko‘rinadi, ular osmonda uchib yurgan bahaybat maxluqlarni eslatadi. Otasining taftli bag‘riga kirib olgan kenja o‘g‘il ularni hayiqmasdan kuzatadi. Kenja botir kichkina, akalari esa katta. Lekin dev bilan urushgani nimagadir Kenja botir boradi. Sababi – akalar vaqti kelib uy-joyini boshqa qilib chiqib ketishadi, kenja esa

ota-ona bilan qoladi. Shu sababli u aqlli, qo'rqmas bo'lib ulg'ayishi kerak.

Bolakay shularni o'ylay-o'ylay, ota pinjida uxlab qoladi...

Uch chanoqli muhabbat

– Qani, bolalar, dalaga!

To'rtinchi sinfdan boshlab to kap-katta yuqori sinf bolalarigacha birin-ketin traktor aravalariga chiqishadi. Traktorda odam tashish anchagacha davom etadi, qachonki bir kuni kanalga ag'darilib ketib, qiz-juvonlar halok bo'lgunga qadar. Shundan keyin odamlarni yuk mashinalarida tashiydigan bo'lishadi, traktor aravalariga esa katta qilib "Odam tashish taqiqlanadi" deb yozib qo'yishadi.

Xullas:

– To'rtinchi sinfni yaqinroqqa olib boringlar!

– Katta sinf yotoqqa ketsin. Baring kap-katta bo'pqolgansan-ku? Uylantirib qo'ysa, bola ko'radigan! Qiyinchilikni ko'r, pish!

Katta sinf viqor bilan, o'zining qadrini bilib turadi. Ularning sochlari o'siqroq, yoqalari ochiqroq. Ularga mumkin, chunki katta sinf.

Kichkina sinf potir-putir chopib-o'ynab yuribdi.

Ke-yetdik dalalarga!

"T-28" tez yursa sakrab-sakrab ketadi, tirkama ham unga qo'shilib ilkis chayqaladi. Kattaroq sinflar-ku mayli, lekin kichik sinf bolalari tushib-netib ketmasin deya, simto'rli aravalarga chiqarishadi. Arava borti tashqaridan berkitiladi, qarabsizki, tap-tayyor qafasning o'zi.

G'o'za qator oralarida muhabbat tarannumi yangraganiga hayron qolasiz.

O'smirlar ulg'ayib, yigit-qizlar yetilib kelishmoqda. Kimdir kimgadir allaqachon ko'ngil qo'yib bo'lgan. Nazorat qattiq: birovning qiziga ortiqcha gapirib bo'lmaydi. Otasiga-ku yetib

boraqolmas, ammo bu yoqda qizning aka-ukalari, tog'a-jiyanlari bor-ku? Shu sababli muhabbat izhorining boshqa usullari o'ylab topiladi. Shulardan biri – uchchanoq.

G'o'zalarda uchchanoqli ko'sak kamyob bo'ladi. Shu bois topib olingan uchchanoq ehtiyotlab saqlanadi, payt poylab turib, yon egatdagi kimningdir egatiga tashlab qo'yiladi. Uchchanoqni olsa bas, "tushgan" bo'ladi.

– Tushdi, tushdi!

Uchchanoqni tashlagan o'smir iljayib turadi.

– Xo'p, nima qilay?

– Behingdan berasan.

– Behim o'zi bitta, xolos.

– Unda paxtangdan berasan.

Va hokazo.

Lekin ishq dardiga giriftor bo'lganlar uchchanoqqa boshqa ma'no yuklashadi. Aytaylik, oshiqu beqaror o'smir o'zi yoqtirgan qizning egatiga uchchanoq tashlab qo'ydi. Bu eng sodda usul, chunki yerda yotgan uchchanoq o'z-o'zidan kelib qolmasligini hamma biladi. Uddaburonrog'i uni lo'ppi paxtalar ichiga yashirishadi.

Mana, qizgina uchchanoqni oldi! Hayron bo'lib atrofiga alanglasa, sal narida qizarib-bo'zarib, bema'ni iljayib turgan oshiqi beqarorni ko'radi.

– Afting qursin, buni sen tashladingmi?

– Ha.

– Nimaga tashlading?

– Shunchaki, o'zim...

Qizgina darhol buning mag'zini chaqadi. Yo "O'l, bezraymay" deb terimida davom etadi, yoki

indamaydi. Indamasa, olam guliston. Oshiq yana bir dunyo uchchanoqni qizning egatiga opkelib tashlashga tayyor. Beg'ubor, bolalarcha muhabbatning sofdil izhorlari mana shu tarzda poyoni yo'q dalalarga yoyilib ketadi. Hali endigina dil izhori qilindi. Qizning munosabati noma'lum. Bordi-yu, sal ro'yxushlik bildirsa ham, istiqbolda o'nlab-yuzlab "dovon"lar turibdi. Hali onaga aytilsa, bir yo'lini qilib u gapni otaga yetkazsa... Ota-ona, aka-singil... Naryoqda qizning ota-onasi, aka-singlisi, qavmu qarindoshi... Shuncha bahaybat to'siqlar yuksalib turganida birgina uchchanoq mehru muhabbat timsoliga aylanib ketishini ko'ring.

Yoshlik tarovati jannat ma'volariga aylantirgan dalalardagi o'smirlarga qarab, Dashti Qipchoqdagi qizgina esimga tushadi. Endi uni yaxshi ko'rishimni ich-ichimdan tan olganman, biroq yetishib bo'lmasligini ham bilaman. Afsus, agar oramizda bo'lganida, egatiga sezdirmay uchchanoq tashlarmidim? Tergan paxtasini, o'rgan o'tlarini ko'tarib shiyponga oborardim. Payvasta qoshlarining, quyuq kipriklarining, xayolimni olgan gavhar ko'zlarining malohati yanada ortgan bo'lsa kerak. Bir kunmas-bir kun uni yana uchratib qolishimga ishonaman, ammo u mo'jiza qay tarz ro'y berishini aqlimga sig'dirolmayman. Balki yana mehmon bo'lib kelishar? Balki o'zimiz ularnikiga borarmiz?..

Quyosh ufqqa yonboshlab, kun tugaydi. Hamma uy-uyiga qayta boshlaydi.

Qaytishda mabodo piyoda ketilsa, qizlar bir to'p, o'g'ilbolalar bir to'p bo'lib, ko'pincha qizlar oldinga o'tib olishadi. Shunda "gap tashlash" boshlanadi.

Gap to'g'ridan-to'g'ri "tashlanmaydi", balki qiyalatib "otiladi":

– Omon, bugun boshqacharoqmisan? Gapirsam ham qaramaysan? – deydi oshiqu beqaror o'spirinlardan biri sherigiga qarata, baland ovozda.

Tabiiyki, bu gap Omonga emas, oldinda ketayotgan qizaloqlardan biriga aytilmoqda. Qizgina ham darrov gap nimadaligini sezadi.

– Zaro, o'zing kecha nima deding?

– Nima dedim? – hech narsadan bexabar Zarofat hayron.

– E, jim ketavermaysanmi? – biqinini chimchilaydi "nishon" qiz. – Anovi mirzaterakka gapiryapman.

“Mirzaterak” – gap otgan o‘smir.

– Omon, hazilni ham tushunmaydigan bo‘lib qolibsanmi? – davom etadi “Mirzaterak”.

Javob darrov keladi:

– Odamga o‘xshab hazil qilsang tushunamanmi, Zaro?

Bunday “gaplashish”larning boshqa turlari ham bor. Masalan, “gap tashlovchi” o‘zi haqida gapiradi:

– Men bugun boshqacharoqmanmi? Gapirsayam indamayman?

Javob ham shunga mos:

– Men kecha bo‘lmag‘ur bir gap aytib qo‘yibman-da, molga o‘xshab.

Hamma sharaqlab kulib yuboradi. Bo‘lmag‘ur gap aytadigan mol qanaqa bo‘lishi mumkin?

– Iya, hazilniyam tushunmaydigan bo‘p qolibmanmi?

– Men esa odamga o‘xshab hazil qilolmaydigan bo‘ppolibman...

Qizlarning o‘z “sheva”si bor, bu – har bo‘g‘inga “z” yoki “b” qo‘shib gapiradigan “sheva”, boshqacha aytganda, “shifr”.

Qizgina Zarofatga “Sen jim ketaver, u menga gapirdi” demoqchi deylik. U gap shunday bo‘lib chiqadi:

– Se-ze-n ji-zi-m tu-zu-r, u-zo me-zen-gaza ga-za-pi-zi-r-di-zi!

Yoki:

– Se-bo-n ji-bi-m tu-bu-r, u-bo me-be-n-ga-bo ga-bo-pi-bi-r-di-bi!

Bu “bidir-bidir”ni qani endi birov tushunsa! Shum qizginalar darrov anglab olishadi. Qo‘llar qavargan, lo‘ppi oq paxtalar barmoqlarni yorib yuborgan, bilaklar tilingan, ammo yoshlik harorati chaqnatgan ko‘zlar, nigohlar, kulishlarning bari hali bir og‘iz so‘z aytilmasidan

olamjahon ma'no tashiy boshlaydi.

Ismlar

Juda ko'p narsalarning o'z ismi bor.

Qishloqlarning, dashtu cho'llarning, bog'laru ko'chalarning, yobonlarning otlarini aytmay qo'yaqolay. Dalalar chetida, odamlar tomorqalariga tutash joylarda shoxlari bulutlarga yetguday bo'lib yong'oqlar o'sgan. Kuzda egasi uzun kaltak bilan mevasini qoqib olsa-da, biribir bitta-yarimtasi qolib ketadi. O'shanday yong'oqlardan birining nomi – "Abdush". Yana birining oti – "Qoqosh". "Abdush" – qobig'i juda qalin yong'oq, "Qoqosh" esa po'sti yupqa, mag'ziyam ko'rinib turadi.

"Abdush" ham, "Qoqosh" ham qari, bujur tanasining o'yiqlari odamning rahmini keltirib, shoxlari har tomonga yoyilib yuksalgan. Yuz-yuz ellik yil avval shu qishloqda yashagan otabobolar nevara-chevaralarimning og'zi tegib yursin deb qadashgan, deyishadi.

Nafaqat yong'oqlaru noklarga, balki behiyu o'riklarga ham odamlar ot qo'yib olishgan.

Uylardagi hayvonlarning ham ismi bor. Masalan, qo'shnimizning sigirlaridan biri – Kelsinoy. Boshqasining oti esa Davlatxon. Mol-hol egasi uyimga baraka, sarvatu davlat kelsin deya shunday nom bergan.

Kuchuk-mushuklarning ham ismi bor. Ular o'z ismini bilishadi, chaqirsangiz bosh burib qarashadi.

Dov-daraxtni odamday koyigan kishilarni aytmaysizmi?

– O'saverasanmi lallayib? Seni meva bergin, bolalarimga rizq bo'lgan deb ekanman. So'laqmonday bo'lib g'o'dayib turishingni qara. Yanagi yil meva qilsang qilding, bo'lmasa kesib tandirga yoqvoraman!

Gilos javob qilmasa-da, qo'rqadi. Rostdan ham yoqvorsa-ya, deb o'ylaydi. Yanagi yili gurros gul ochadi. "Xatardan cho'chib, tezroq zurriyot qoldiray desa kerak... Shuning uchun o'simliklar qor-yomg'irli sovuq kunlargacha urug'larini yetiltirib, daraxtlar mevalarini pishirib olisharkan-da", deb xulosa qilaman o'zimcha.

– Ba’zi o’g’illar shunaqa bo’lishadi, do’q urmasang buyurgan ishingni bajarmaydi...

Ha, bolalar ulg’ayib kelishmoqda. Ba’zilarining mo’ylovi behi tukiday bo’lib qolgan, ovozlari goh do’rillab, goh chiyillab chiqadi. Maktabda esa ibtidoiy darslar davom etadi.

– Jo’g’rofiya, ummon qanaqa bo’ladi?

– Oxiri ko’rinmas, bepoyon sho’r suv.

– Baliqlariyam bordir?

– Bo’lmasinmi?

Bizdagi baliqlar mayda, jo’n. Ko’zimga juda soddaday ko’rinadi. Eng kattasi shapaloqday keladi, shuniyam bolalar tutib olgach, ko’z-ko’zlab yarim kun ko’tarib yurishadi. Boshqalari – jimchiloqday keladigan mitti baliqchalar, uvildiriqdan yangi chiqqaniga qarasangiz, ninachi bolasini eslatadi: ignaday keladigan jimit tananing ikki yonida bo’rtiq ko’zchasi bo’ladi.

– Odamlar-chi, bizdaqami?

– Odam Xudoning bandasi, hamma joyda bir xil, bolam. Hamma bir ota-onadan, ya’ni Odam Ato bilan Momo Havodan tarqagan.

– Shuncha odam-a?

– Ha, qachonlardir dunyoda faqat ikkita odam bo’lgan, xolos.

– Odam maymundan paydo bo’lmaganmi?

– Tavba qildim de! Inson yer yuzining jonzoti emas. U jannatdan tushgan!

...Sabzavotlar yig’ishtiriladi. Makkalar o’rilib, bir-ikkita poyasidan arqon eshib, belidan dastalab boylanadi. Keyin quritish uchun qo’ralarga tikkamasiga bosiladi. O’rib olingan yerlarda qoldiq ildizlari tig’day bo’lib chiqib turadi, uni “tukuch” deydilar. Ehtiyot bo’lmasangiz, oyoqni tilib yuboradi, ko’chirib chetga uyish kerak. Otalar tomorqaga go’ng solishadi. Keyin yer yana chopib chiqiladi, shunda go’ng tuproqqa qorishadi. Yomg’irlar boshlanmasidan tezroq ulgurish kerak, shu sababli erkaklaru bolalar, xotinlaru qizchalar – hamma bab-baravar yer ag’daradi.

Makkapoya tig'i bir-ikki marta qo'limni, oyog'imni tilib yuborgani, jarohatlangan joyidan och qizil qon sizib chiqqani yodimda. Saldan keyin usti jigarrang tus olib qotadi, ikki-uch kundan o'tgach, u qobiq ko'chib, o'rni nozik pushtirang tusdagi yangi teri bilan qoplanib qoladi. "Toza tuproq sep, o'z-o'zidan bitib ketadi" deyishadi kattalar. Gohida shakar sepsa yoki qorakuya surtsa ham bo'ladi. Buni hamma biladi, mabodo bir joyi jarohatlansa, shu aytilganlarni qilishadi.

...Kuzda mevalar xilma-xil, benihoya shirin bo'lib yetiladi. Osmonning rangi to'q moviy tusga kirib sokinlashgan, havoda gohida hilpirab mezonlar uchadi. Behilar uzib olinib somon orasiga joylangan, uzumlar shiftga osilgan. Shaftoli, olma, o'rik qoqi qilingan. Pomidor ham qoqi qilinadi, o'rtasidan ikki palla qilib yorib, oftobga quritgani qo'yaverasiz. Ichidagilarini tog'oraga to'kasiz, vaqt o'tib suvi ketgach, urug'i qoladi. U och-sarg'ish tusli, yapasqi bo'ladi. Bodring urug'i ham shu tariqa olinadi. Shakli uzunchoq, oq rangli, shilimshiq, xuddi qovun urug'iga o'xshaydi. Barini dokaga o'rab osib qo'yasiz, chunki yanagi yil yerga qadash kerak...

(Davomi keyingi sonda.)

Isajon Sulton

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

1967 yili tug'ilgan. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning jurnalistika fakultetini tamomlagan. "Munojot", "Oydinbuloq" nomli qissa va hikoyalar to'plamlari, "Boqiy darbadar", "Ozod" kabi romanlari adabiy jamoatchilikda iliq fikr uyg'otgan.

[i] Qadimiy turkiy bitiklardan.

[ii] Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning ayoli, Sofiya onamizga ishora

[iii] Janubiy Amerikadagi qadimiy shahar, Kolumbiyaning poytaxti. Dunyo miqyosidagi genetika anjumanlari shu shaharda o'tkaziladi.

